

Umidli bu dunyo yaralgan soʻzdan,  
Soʻzda bordir olam vaznicha sehr.  
Tamalar qilmasdan har oʻgʻil-qizdan,  
Oftob misoli bergansiz mehr.

Zar bilan, siym bilan boʻlmaydi oʻlchab,  
Labingizdan uchgan har bir soʻz oltin.  
Ajab, hamon tutib olganday qoʻlcham,  
Rosti, Sizdan oʻtib ketolmam oldin.

Ilk saboqlaringiz yodimda hamon,  
Muhriday dillarda qoldirgan izin.  
Gullardan poyonoz toʻshaydi shu on,  
Agar shogirdlarga bersangiz izn.



Oʻzbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda Ha nocty

2024-yil  
26-sentabr  
payshanba

№ 39 (4681)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz) / E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)



**Namangan viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni alohida otliq guruhi viloyat hududida oʻtkazib kelina-yotgan ommaviy-madaniy va sport tadbirlarida namunali jamoat tartibini saqlashda katta hissa qoʻshib kelmoqda.**

*Suratda:  
PPX inspektori,  
safdor Oybek  
Oybolayev  
«Qiro» laqabli  
oti bilan.*

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI



**Yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish davlatimizning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan yoshlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha choralar ko'rib kelinmoqda.**

O'zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamkorligida joriy yilning 17-19-sentabr kunlari Nukus shahrida «Xavfsiz hayot uchun birlashaylik!» shiori ostida keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Mazkur tadbir qoraqalpog'istonlik yoshlar ishtirokida bo'lib o'tgan uch kunlik turli namoyishlarga, ularning bundan keyin bor kuch va imkoniyatlarni to'liq ishga solishi yuzasidan rag'bat beradigan uchrashuvlarga boy bo'ldi. Bundan tashqari, IIVga birlashtirilgan yoshlar uchun bepul tibbiy ko'rik o'tkazildi, tadbirlarda Qoraqalpog'iston Respublikasining turli tumanlari va Nukus

shahridan jami 1000 nafardan ortiq yoshlar ishtirok etdi.

Yoshlarning muammolarini aniqlash va bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, general-mayor Bekmurod Abdullayev tomonidan joriy yilning 17-sentabr kuni Nukus shahridagi «IT PARK KARAKALPAKSTAN» ma'muriy binosida yoshlar bilan sayyor qabul o'tkazildi.

Qabul davomida Qoraqalpog'iston Respublikasining shahar va tumanlaridan turli masalada jami 64 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan 49 ta murojaat ijobiy hal etildi, ko'rib chiqish uchun muddat talab qilganligi sababli 15 ta murojaat ijrosi nazoratga olindi.

Shu kunning o'zida Nukus shahrining «Do'stlik maydoni»da IIV Jamoat xavfsizligi departamentining Huquqbuzarliklar profilaktikasi, Yo'l harakati xavfsizligi, Jamoat tartibini saqlash va Probatsiya xizmatlari tomonidan o'z faoliyatiga oid qiziqarli taqdimot, huquqiy savodxonlik bo'yicha interaktiv o'yinlar, sport musobaqalari va boshqa ko'rik-tanlovlar uyushtirildi. Mazkur tadbirlar yoshlarda sohaga

katta qiziqish uyg'otdi. Kelgan yoshlarning har biriga eko-sumkalarda jamlangan tarqatma materiallar (termos, bloknot, ruchka, beydjik, smayl) tarqatilib, o'zlariga yoqqan xizmatni yoshlar smayllar orqali baholagandilar.

Taqdimotdan so'ng maydon hududida yoshlarga konsert dasturi namoyish etilib, unda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi Amanbay Orinbayev va general-mayor Bekmurod Abdullayevlar yoshlarga tadbirning mohiyatini va kelajakdagi vazifalarni talqin etib, ularni olqishladilar, «Obod mahalla», voleybol sport turi bo'yicha «Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri kubogi», «To'maris izdoshi», «Fidokor yosh», «Yo'l harakati qoidalari yosh targ'ibotchisi» nominatsiyalari bo'yicha bir qator yoshlarni taqdirladilar.

«Xavfsiz hayot uchun birlashaylik!» shiori ostida o'tkazilgan keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tadbirning ikkinchi kuni 110 nafar yoshlar Xorazm va Buxoro viloyatlaridagi tarixiy obidalar va diqqatga sazovor joylarga sayohat qilishdi.

O'z muxbirimiz.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

## MARD, FIDOYI XODIM EDI

**Tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlari har qanday vaziyatda qasamyodiga sodiq qoladilar, jonni fido qilib bo'lsa-da, yurt osoyishtaligini saqlashni o'z burchi deb biladilar. Ko'kdala tumani IIB JXX YHXB katta inspektori, katta serjant Elbek Primov ana shunday fidoyi xodimlardan biri edi.**

1984-yilda Qarshi tumanida tug'ilgan lavhamiz qahramoni xizmat faoliyatini 2006-yili Qashqadaryo viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasida militsioner lavozimida boshlagan. O'tgan yillar davomida u kasbiy, jangovar va jismoniy mashg'ulotlardagi faolligi, berilgan topshiriqlarni bekor-ko'st bajarishi bilan hamkasblari hurmatiga sazovor bo'ldi. So'ngra Qarshi shahar va Qarshi tumani IIB-lari qo'riqlash bo'linmalarida xizmat qilib, halolligi, kasbga sodiqligi bilan rahbariyat e'tiboriga tushdi.

Xizmatni 2018-yildan viloyat IIB TVBSOda davom ettirgan qahramonimiz ko'plab yosh xodimlarga murabbiylik qilib, ularga xizmat sirlarini o'rgatdi. 2022-2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV TVBSOda katta mutaxassis lavozimida xizmatni davom ettirdi.



– Yo'l harakati xavfsizligi bo'linmasi katta inspektori sifatida 2023-yildan boshlab xizmat qilgan katta serjant Elbek Primov o'z ishini puxta bilishi bilan alohida ajralib turardi, – deydi tuman IIB JXX YHXB boshlig'i, kapitan Kamolidin Normo'minov. – Joylarda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib

borishda ham faol edi. Halol yigit edi. Huquqbuzarlarga nisbatan murosasiz edi.

Joriy yil 8-iyul kuni Ko'kdala tumani hududida xizmat olib borayotgan katta serjant Elbek Primov jinoyatchi tomonidan yetkazilgan og'ir tan jarohati tufayli shifoxonada vafot etdi.

Davlatimiz rahbarining farmoniga muvofiq, sharafli burchini bajarish chog'ida mardlik va fidoyilik ko'rsatgan qahramonimiz vafotidan so'ng «Jasorat» medali bilan taqdirlandi.

– 2008-yildan beri shirin turmush kechirib, 3 o'g'il farzandli bo'ldik. Dadasini ishdan kelishini bolalarim doim shod-u xurramlik bilan kutib olardi, – deydi turmush o'rtog'i Lobar Xolmurodova.

– U kishining xizmati, fidoyiligi e'tibordan chetda qolmagani meni quvontirdi. Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov davlatimizning yuksak mukofotini topshirganda, butun hayotim ko'z o'ngimda mujassam bo'ldi. Turmush o'rtog'imning yurt tinchligi yo'lida jon fido qilgani, bolalarim bilan viloyat IIB va vazirlik rahbariyati nazaridan, e'tiboridan chetda qolmaganimiz uchun, uning xizmati shu darajada qadrlangan uchun Prezidentimizdan minnatdorman.

Bugungi kunda marhum Elbek Primovning barcha farzandlari maktabda tahsil olishmoqda. Viloyat va tuman IIB xodimlari uning oilasiga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishmoqda. To'ng'ich farzandi Asadbek ota kasbiga havasmand ulg'aymoqda. «Dadamning kasbini albatta davom ettiraman va ulardek mard, jasoratli inson bo'laman», deydi Asadbek. Demak, Elbek Primovning jasorati yosh avlod uchun matonat va ibrat maktabi bo'lib qoladi.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

**Suratda:** E. Primovning turmush o'rtog'i L. Xolmurodova o'g'li Asadbek bilan.

Bilib qo'ygan yaxshi



## TAJRIBADA ILK BOR

Joriy yilning 27-oktabr kuni mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatlari saylovi bo'lib o'tadi. Ayni paytda deputatlikka siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatga olindi.

Ta'kidlash kerakki, milliy saylov tajribamizda ilk marotaba 5 ta siyosiy partiya tomonidan barcha darajadagi deputatlik o'rinlariga 100 foiz nomzodlar ko'rsatildi. Xususan, siyosiy partiyalar Qonunchilik palatasiga jami 875 nafar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar kengashlariga 3625 nafar, xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga 24850 nafar nomzod, ya'ni barcha saylov okruglarida nomzodlar to'liq ko'rsatish imkoniga ega bo'ldi.

Parlament quyi palatasi – Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlar orasida ayollar soni 391 nafarni yoki 44,7 foizni tashkil etdi. Bu saylov tariximizdagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar (shaharlar) kengashlariga ham har bir partiyadan nomzodlar ro'yxatga olingan bo'lib, deputatlik mandati uchun 28475 nafar nomzod kurash olib boradi.

Diqqatga molik yana bir jihat shuki, nomzodlarni ko'rsatishda siyosiy partiyalar inklyuzivlikka ham alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, Qonunchilik palatasi saylovi bo'yicha deputatlikka nomzodlar orasida jami 11 nafar va mahalliy kengashlar saylovi bo'yicha deputatlikka nomzodlar orasida 605 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar mavjud. Bunday yuqori darajadagi inklyuzivlik birinchi marotaba kuzatilmog'ida.

**Markaziy saylov komissiyasi matbuot xizmati materiallari asosida tayyorlandi.**



## Грани мастерства

# БДИТЕЛЬНОСТЬ НЕ ПОДВЕЛА

**Житель Ургенча Шокир К. (здесь и далее имена фигурантов изменены) промышлял мошенничеством. Пользуясь доверчивостью граждан, ловко проворачивал свои комбинации. Придумав очередной план, мошенник выбрал профессию «мясника» и начал аферу.**

Прознав, что Исмоил Х. намерен продать скот, приехал к нему. Обрадованный тем, что покупатель сам явился с предложением, хозяин пригласил гостя в дом. Осмотрев живность, «мясник» согласился приобрести скот по цене, названной владельцем.

– Но деньги получите через неделю, мясо нужно еще реализовать, – заявил он для убедительности.

На том и порешили. Забрав товар на 48 миллионов 450 тысяч сумов, мошенник на следующий же день продал скот на базаре. Через некоторое время отдал бывшему хозяину 22 миллиона сумов, а остальные деньги присвоил.

Следующей жертвой стал житель города Сапар Э. По схожему сценарию, густо перемежая

вежливые слова заверениями в честности, мошенник уводит двух бычков, оцененных сторонами в 29,6 миллиона сумов. Затем «мясник» переносит свою деятельность в Каракалпакстан. Жертвами проходимца становятся Ешимбет А. из Берунийского района, который вручает «покупателю» крупный рогатый скот на 41,5 миллиона сумов, и Машарип Д., передавший стадо в несколько голов на 671 миллион 899 тысяч сумов.

Реализовав на рынке животных, аферист преспокойно наслаждался жизнью, а его жертвы упрашивали вернуть недостающие суммы. Шокир К. под разными предложениями тянул с возвратом денег. Но всякому терпению есть предел. После нескольких



месяцев безуспешных попыток, пострадавшие обратились в органы внутренних дел. Правоохранители завели уго-

ловное дело. Шокир К. ударяется в бега, на него объявляется розыск.

Благодаря бдительности командира груп-

пы отряда обеспечения безопасности при проведении общественно-массовых и культурных мероприятий батальона УООП СОБ областного УВД старшего сержанта Улмасбека Холлиева мошенника удалось задержать на территории города Ургенч.

– Улмасбек уже пятнадцать лет исправно несет службу в нашем подразделении, – говорит майор Уткир Машарипов. – Он один из лучших в отряде, активно участвует в раскрытии преступлений, задержании лиц, находящихся в розыске.

За минувший период года он лично участвовал в задержании 7 преступников, объявленных в розыск, в раскрытии по горячим следам двух преступлений, раннем предупреждении 19 правонарушений.

**Худойберган  
ЖАББОРОВ,**  
соб. корр.

Хорезмская область.

## ҚОРОВУЛ ҚЎШИНЛАРИДА

# КАСБ МАҲОРАТИНИ ОШИРИБ

Руслан 2010 йилда йўлланма билан ўзи туғилиб ўсган Қарши шаҳридаги қўшинларга қаршли 7533-ҳарбий қисмининг 2-батальонида рухсатномалар бюроси навбатчиси лавозимида хизмат фаолиятини бошлади. Кейинчалик Руслан 7551-ҳарбий қисмда турли лавозимларда самарали хизмат олиб борди. Айни пайтда лавҳамиз қаҳрамони 7536-ҳарбий қисмининг 3-батальонида назоратчилар гуруҳи командири лавозимида ишлаб келяпти. Бундай даражага эришувида устозларининг ёрдами ҳеч қачон унутмайди.

– Хизматда нимагаки эришган бўлсам, биринчи устозларим истефодаги сержантлар – Отабек Ахтамов, Асомиддин Мирзоев ҳамда батальон командири, подполковник Рашид Кидирбаевларнинг талабчанлиги туфайли деб биламан, – дейди сержант Р. Худойбердиев. – Улар доимо юртни севиш, унга садоқат билан хизмат қилиш, унинг тараққиёти, тинчлиги ва мустақиллиги йўлида фидойилик кўрсатиш кераклигини тайинлашарди. Ана шундай инсонларнинг шогирди бўлганимдан фахрланаман.

Лавҳамиз қаҳрамони хизматда ҳам, жамоат ишларида ҳам ҳамкасбларига доимо ўрнак. Айниқса, вазифасига кўра қўл

**7536-ҳарбий қисмининг 3-батальонида ўзига юклатилган жанговар хизмат вазифасини сидқидилдан бажариб, касб маҳоратини ошириб келаётганлардан бири сержант Руслан Худойбердиевдир.**



остидаги сержантларга тарбиявий ва мафкуравий йўналишларда дунёқарашларини бойитишга ҳиссасини қўшиб келмоқда. Уларнинг жанговар шайлигини ҳам мунтазам ошириб, жисмонан чиниқтириб бормоқда. Русланиннг издошлари орасида кичик сержантлар – Феруз Жўраев, Одилхон Муродов, Дамир Идиев,

Шоҳрух Нуриллаев, Элмурод Қодировлар бор. Чунки улар ҳам устози сингари батальон фахри ҳисобланади. Кўплаб танловларда ва спорт мусобақаларида фахрли ўринни олиб келишмоқда.

Инсон бахтининг тўқислиги оиласига ҳам боғлиқ. Руслан намунали оила бошлиғи ҳамдир.

Турмуш ўртоғи Умидахон 3 нафар боласининг тарбиясидан ортиб, тикувчилик ортидан рўзғорига ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда. Қисқаси, бу аҳил оилага кўпчилик ҳавас қилади.

**Мирзоқул АҲАДОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.



Tuman IIOFMBda

## ULUG' NE'MATNI ASRASH YO'LIDA

Poytaxtning Olmazor tumani 1970-yilda tashkil topgan bo'lib, 2010-yilgacha general Sobir Rahimov nomi bilan atalgan. Shu tariqa, XVIII asrda shakllangan shaharning to'rt tarixiy dahasidan biri – Olmazor nomi tumani nomi sifatida qayta tiklandi. Hozirgi kunda tumanda 64 ta mahalla mavjud bo'lib, aholisi 400 ming nafardan ortiq.

Tuman Toshkent shahrining shimoli-g'arbida joylashgan. Shimoli-g'arbda Toshkent viloyatining Zangiota tumani, shimoliy va shimoli-sharqda Toshkent tumani, sharqda Yunusobod tumani, janubiy va janubi-g'arbda Shayxontohur tumani bilan chegaradosh. Tumani hududidan Qichqiriy, Damariq, Qoraqamish, Kaykovus va boshqa kanallar oqib o'tadi.



Tuman IIOFMB Navbatchilik qismiga kelib tushayotgan har bir xabarni yozib olayotgan katta inspektor, podpolkovnik Faxriddin Berdiyev va serjant Farhod Nurmatovlar ko'p yillik xizmat tajribasiga ega. Bugun ham ular o'zlarining navbatchiligi davomida bir necha o'nlab chaqiruvlarga tezkorlik bilan javob qaytarib, qayd etib borishdi.



Jinoyatga jazo muqarrarligini ta'minlash tergovchining birinchi galdagi vazifasi. Shuningdek, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etish, to'la va xolisona tergov qilish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ustunligiga, ularning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishiga so'zsiz rioya etish tergovchining asosiy qoidasiga aylanishi lozim. Tergov bo'limi katta tergovchisi, mayor Azamat Amanov o'tgan 8 oy davomida 59 ta jinoyat ishini tergov qildi. Shundan 39 tasi qonuniy hukm chiqarish uchun sudga jo'natilgan va 15 tasiga yarashuv qo'llanilgan.



Podpolkovnik Saxovatxon Meliyeva xotin-qizlar muammolarini hal etishda tegishli idora vakillari, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari hamda faollari bilan hamkorlikda faoliyatini yo'lga qo'ygan. Jumladan, 6 nafar nogironligi bo'lganlarga moddiy yordam pullarini olishda amaliy yordam ko'rsatdi. 12 nafar og'ir ijtimoiy holatga tushib qolganlarning bandligini ta'minlashda hamkor tashkilotlar bilan birga yordam berdi. Ijtimoiy huquqiy profilaktik ishlar natijasida hududdagi ajralish yoqasiga kelib qolgan 8 ta oilaning yarashtirilishida o'z hissasini qo'shdi. Shuningdek, hududdagi mahallalarda yashovchi jami 9 nafar ijtimoiy og'ir ahvolda bo'lgan xotin-qizlarning ro'yxatini shakllantirib, ular bilan profilaktik ishlarni amalga oshirgan.



Axborot texnologiyalarini joriy etish guruhi muhandisi, katta serjant Abror Tojiboyevning tuman IIOFMBda alohida o'rni bor. Chunki uning xizmati boshqarmadagi aloqa vositalarining butligi, kamera va videokuzatuv moslamalarining bekamu ko'st ishlashi hamda kompyuter va planshetlarning sozligini ta'minlash bilan bog'liq. U o'z faoliyatini 2008-yilda boshlagan bo'lib, tuman IIOFMBda 15 yil davomida xizmat qilib kelmoqda.

Leytenant Abdumuxtor Zaynobiddinov IIOFMB kadrlar bilan ta'minlash guruhi katta psixologi. U xizmatni boshlaganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. O'z bilimi va ustozlari hamda hamkasblaridan o'rganganlarini amaliyotga tatbiq qilib, xodimlarning psixologik bilimlarini oshirib borish, individual psixologik yordam ko'rsatishda bor salohiyatini ishga solmoqda.



Dunyoda eng ulug' ne'mat – tinchlik. Uni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimiz. Bu yo'lida kamarbasta bo'layotgan Olmazor tumani IIOFMB xodimlarining eng oliy maqsadi ham shu.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

■ г. Ташкент

## В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ ВОПРОСЫ ЖЕНЩИН

В ГУВД города Ташкента с участием ответственных сотрудников службы профилактики состоялось совещание, на котором подведены итоги работы, проделанной старшими инспекторами по вопросам женщин за истекшие месяцы текущего года.



Отмечено, что инспекторы, деятельность которых направлена на обеспечение защиты прав и законных интересов женщин, повышение их правовой культуры, ограждение от всех форм притеснения и насилия, ранее предупреждение совершения правонарушений, достигли определенных успехов.

За отчетный период изучено семейное положение 7 959 женщин,

улажено 3409 конфликтов, выдано 1 165 охранных ордеров.

В результате проделанной работы трудоустроены 282 женщины, еще 590 оказана материальная помощь. 117, имеющих проблемы со здоровьем, направлены на лечение в медицинские учреждения. Кроме того, 60 жительницам столицы оказана поддержка в налаживании предпринимательства.

С женщинами проведены свыше 2,7 тысячи спортивных и культурно-массовых мероприятий. Организованы встречи в махаллях, учебных заведениях, направленные на предупреждение преступлений и правонарушений, разъяснение законодательства в области прав и свобод женщин.

В ходе совещания лучшим сотрудницам были вручены благодарственные письма руководства ГУВД.

Соб. корр.

### ПРАВОВАЯ ПРОПАГАНДА

Принято  
Постановление  
Кабинета Министров  
«Об утверждении  
Программы  
мероприятий  
по повышению  
правовой культуры в  
обществе на  
2024-2025 годы» от  
18 сентября 2024 г.

Программой предусмотрено:

повышение правовой культуры населения во взаимоотношениях «личность – государство – общество»;

внедрение инновационных методов;

усиление роли СМИ в данной деятельности;

исследование научных основ повышения правовой культуры.

Руководители соответствующих государственных органов и организаций несут персональную ответственность за своевременное, полное и качественное выполнение мер, предусмотренных Программой.



■ Андижанская область

## КОГДА ПРОФЕССИЯ ПО ДУШЕ

**Ветеринар – не просто профессия, а призвание. Он понимает пациентов без слов и не ждет от своих подопечных благодарности. На плечи рядового Мусабeka Кувватова ложатся лечение, контроль над качеством кормов и условиями содержания животных, профилактика заболеваний, лабораторные исследования.**

Мусабек еще в детстве лечил ягнят, телят, кошек, собак. Когда пришло время выбора профессии, не сомневался, что станет ветеринаром. В 2021 году он окончил Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий, затем работал в аграрном секторе. В 2023 году был принят на должность ветеринара-фельдшера в кинологовическое отделение Управления охраны общественного порядка СОБ УВД Андижанской области. Его наставником стал ветеринарный врач капитан Рафикжон Неманов.



На практике он показывал молодому сотруднику методы лечения животных. В начале этого года рядового М. Кувватова назначили

на должность ветеринара-фельдшера конной группы.

– На моем попечении 10 коней, – рассказывает Мусабек.

– Они содержатся в просторных вольерах утепленной конюшни. Кони регулярно проходят медосмотры, при необходимости определяются в карантин. Животных периодически приводят в солярий. Инфракрасные лучи помогают бороться с болезнями суставов и мышц, к тому же восполняют недостаток витамина D. Внимательно следим за питанием лошадей. Кормим их трижды в день ровно по часам...

Почему выбрал ветеринарию? Профессия мне по душе, интересная, не наскучит и не надоест. От ветеринара зависит жизнь живого существа. Он должен знать все о многих животных – видах, породах. Сложность труда ветеринара в том, что пациент не скажет, что у него болит. Животные любят людей больше, чем самих себя. Они не предадут, не осуждают, просто любят.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
соб. корр.

**На снимке:** ветеринар-фельдшер конной группы рядовой Мусабек Кувватов с Бураном.



## ELGA YELKADOSH BO'LIB

Ayni paytda viloyat, shahar va tuman IIB xodimlari tomonidan «Qoradori-2024» tadbirining 2-bosqichi keng ko'lamda olib borilmoqda. Yaqinda Romitan tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, leytenant Mavlud Ahmedov xizmat olib borayotgan «Guliston» mahallasidagi xonadonlarni ko'zdan kechirayotganda, Guliston ko'chasida yashovchi Sh.H. tomorqasida 3 tup kannabis giyohvandlik o'simligini parvarishlab kelayotganini aniqladi. Taqiqlangan o'simlik esa xolislar ishtirokida tegishli tartibda hujjatlashtirib olindi. Surishtiruv jarayonida fuqaro Sh.H. o'zi uchun ekib, parvarishlayotganini tan oldi. Leytenant M.Ahmedov xizmat faoliyati davomida ana shunday hushyorlik namunalari namoyon etib kelmoqda.

Qorako'l tumani Chandirobod qishlog'ida tavallud topgan Mavludjon muddatli harbiy xizmatni o'tagach, Buxoro davlat universitetiga o'qishga kirdi. Oliy malumotli mutaxassis Buxoro shahridagi 35-sonli umumta'lim maktabida avval o'qituvchi, so'ng Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarida ishladi. To'ng'ich akasi Ma'rifjon 7532-harbiy qism xodimi bo'lgani va harbiylikka ishtiyoqi sabab 2021-yilning dekabr oyida o'tkazilgan tanlovda ishtirok etib, hozirgi vazifasida xizmatga qabul qilindi.

M. Ahmedovga tajribali profilaktika katta inspektori, kapitan A. Rahimov murabbiy etib birlashtirildi.

Unga birlashtirilgan «Guliston» mahallasi «qizil» toifada bo'lib, ustozlari

dan erinmay sohaning sir-asrorlarini, jinoyatga moyilroq va profilaktika hisobida turuvchi shaxslar bilan profilaktik suhbatlar olib borishni o'rgandi. Birinchi yildanoq mahallani «qizil» toifadan «yashil» toifaga aylantirdi. Joriy yilning shu davrigacha esa jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Lavhamiz qahramoni xizmat ko'rsatayotgan mahalla tuman markazida joylashgan. Mahalla faollari bilan hamjihatlig-u hamkorligi hamda katta-yu kichikni birday hurmat-u e'zozlab kelayotganidan, leytenant M. Ahmedov tuman va viloyat miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda hamda musobaqalarda faol ishtirok etmoqda. Jumladan, 2022-yil viloyat ichki ishlar organlari xodim-



lari o'rtasida bo'lib o'tgan kurash musobaqasida 70 kg vaznda faxrli birinchi o'rinni egalladi. Yana shu yili «Eng yaxshi kitobxon» tanlovining respublika bosqichida IIVning faxriy yorlig'i hamda esdalik sovg'asi bilan taqdirlanganini alohida aytib o'tish joiz.

Bir so'z bilan aytganda, leytenant Mavlud Ahmedov el-yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash yo'lida fidoyilik ko'rsatib xizmat qilmoqda. Uning xizmatidan esa aholi doimo minnatdor bo'lib kelyapti.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

## INSON QADRI UCHUN

### MEN HAM SHU YURT FUQAROSIMAN

deyishmoqda farg'onalik 10 nafar baxtli yurtdoshimiz

**Mustaqilligimizning 33 yillik bayrami arafasida farg'onalik 10 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxs Prezidentimiz farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi.**

Viloyat hokimligida ushbu baxtga erishgan yurtdoshlarimizga ID-kartalar tantanali ravishda topshirildi. Tadbirda ta'kidlanganidek, mamlakatimizda inson qadr-qimmatini mustahkamlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasiga

davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ko'p yillardan beri yurtimizda yashab, uning rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni fuqarolikka qabul qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy maqomini mustahkamlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi ham fikrimizni isbotlaydi.

2020-yil 13-martda yangi tahrirda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonunga asosan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni belgilangan tartibda O'zbekiston

**2016-yildan 2024-yilning avgust oyiga qadar respublikamiz hududida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan 24 mingdan ziyod fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi. Ushbu davr mobaynida viloyat hududida doimiy yashovchi 3390 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston fuqarosi degan sharafli nomga ega bo'lishdi.**

Respublikasi fuqarosi deb tan olish instituti joriy qilingandi. Mazkur islohot natijasida respublikamiz bo'yicha joriy yilning avgust oyiga qadar 57 mingdan ziyod fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi deb tan olindi. Shulardan, 5413 nafarini viloyat hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tashkil qiladi.

– Mustaqillik men uchun qo'shaloq bayramga aylanib ketdi, – deydi Quvasoy shahrida yashovchi Odinaxon Abdumutalibova. – O'zbekiston fuqarosi degan sharafli nomga sazovor bo'lish bu ulkan baxtdir. Davlatimiz rahbari tomonidan berilgan bunday e'tiborga javoban, jonajon Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida sidqidildan xizmat qilib, Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shaman.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



## ЯХШИЛАР ЁДИ

## УСТОЗГА ЁХШАШГА ИНТИЛДИМ...

Устоз дейишимиз билан кўнглимизда чуқур ҳурмат-эҳтиром ва чексиз миннатдорлик туйғулари, шу билан бирга, ҳеч қандай моддият билан ўлчаб ва адо қилиб бўлмайдиган қарздорлик ҳисси пайдо бўлади. Негаки, устозлар ўғити, панд-насихатларига амал қилиб борган инсон ҳаётда асло кам бўлмайди. Устозлар бутун умрини элу юртга хизмат қиладиган, баркамол шогирдлар тарбиялашга бахшида қилишади. Ўзи «умр» арабча сўз бўлиб, унинг луғавий маъноси «обод бўлиш»дир. Хўш, инсоннинг умри қандай қилиб обод бўлади? Жавоби жуда оддий, эзгуликлар қилиш, ўзидан яхши издошлар қолдириш ва бунинг ортидан улғуном билан эсланиш орқали.

Марҳум полковник Мирислом Иноятов ҳам юқоридаги фазилатларга эга, номи зарҳал ҳарфлар билан ёзилишга арзийдиган, том маънода ҳақиқий ватанпарвар инсонлардан бўлган. Бугун у кишининг шахсияти, раҳбарлик салоҳияти, фазилатлари ҳақида энг яқин шогирдларидан бири – «Содиқ хизматлари учун» медали ҳамда «Дўстлик» ордени соҳиби, «Жар» спортсоғломлаштириш комплекси бошлиғи, полковник Тоҳириддин Нажимов билан биргалликда ёрқин хотираларни ёдга оламиз...

Мирислом Иноятов 1951 йил 13 декабрда Тошкент шаҳрида туғилган. Одамлар орасида ҳурмати ниҳоятда баланд бўлган. Ёнғин шундай нарсаки, инсон бутун умр йиғиб терганидан 1 соат ичида айрилиб қолиши мумкин. Қаҳрамонимиз умрининг охиригача Тошкент вилоятида тилсиз ёвга қарши мардондор курашган. Ёнғин хавфсизлиги бўйича оддий ходимликдан Тошкент вилояти ИИБ Ёнғин хавфсизлиги бошқармаси бошлиғигача бўлган масъулиятли вазифаларни адо этган.

**Полковник М. Иноятов ортидан жуда кўп шогирдлар қолдирган. Шогирдларининг кўпчилиги раҳбарлик лавозимларида самарали меҳнат қилмоқда. Улардан генерал-майорлар – Фарғона вилояти ИИБ бошлиғи Азизбек Икрамов ва Тошкент вилояти ИИБ бошлиғи Тоҳир Ориповларни келтиришимиз мумкин.**

Мирислом Иноятовнинг яна бир шогирди, полковник Тоҳириддин Нажимовга ҳам нафақат Тошкент вилоятида, балки республика миқёсидаги раҳбарлик лавозимлари ишониб топширилди. Устози оламдан ўтганидан сўнг Тошкент



вилояти ИИБ Ёнғин хавфсизлиги бошқармаси бошлиғи, ИИБ Ёнғин хавфсизлиги олий техник мактаби бошлиғи, ИИБ Қўриқлаш бош бошқармаси бошлиғи, ИИБ Ташкилий департаменти бошлиғининг биринчи ўринбосари лавозимларида самарали хизмат қилди.

Тоҳириддин аканинг устози билан яқиндан танишуви жуда қизиқ бўлган. Улар бир-бирини маҳалладош сифатида аввалдан билишган. Ўтган аср 80-йилларнинг охири. Т. Нажимов Тошкент электротехника алоқа институтида кечки таълим шаклида ўқиб, кундузи ишларди. Шанба, якшанба каби дам олиш кунлари маҳалладагиларнинг маиший ва радиотехникаларини тузатиш билан банд бўларди. Полковник Мирислом Иноятов «Қорасув»даги кўп қаватли уйларда турарди. Талаба Тоҳириддин Нажимов тақдир тақозоси билан ўша манзилдаги рус кампирнинг носоз техникаларини тузатишга бориб, ишини бажариб чиқаётганида рўпарасида бир полковник пайдо бўлади ва «Сен бола нима қилиб юрибсан бу ерда?» дейди. Йигитдан: «Тирикчилигим бор, шунинг ортидан 3–4 сўм топаман деб юрибмиз-да», — қабилидаги жавобни эшитган полковник: «Жуда ақлинг жойида, қўлингдан кўп иш келади, деб эшитганман. Қани юр-чи, мен билан», — дея уйига бошлади. Тоҳириддин Нажимов ўша куни, Мирислом Иноятовнинг 1 та телевизорини тузатиб, яна биттасини созлаш учун уйига олиб кетади. Кир ювадиган машинани ҳам тузатиб беради. Полковник ўз вазифаларини охиригача бажариб бўлган талабага «Хизмат ҳақинг қанча бўлади?» дейди. Тоҳириддин Нажимов эса «Мирислом ака ҳурматингиз бор, сиздан олсам уят бўлади, раҳмат, шарт эмас» деган жавобни беради. Полковник «Шунча вақтинг кетди, ҳеч бўлмаса, мана шу уч сўмни ол, менинг қўлимни қайтаришмаган» дея қўлига пулни тутқазади. Сухбат давомида «Сенинг йўналишинг бўйича менда ҳозир мутахассис йўқ, иложи бўлса менга ўтгин» деган таклифни беради.

Тоҳириддин отасининг розилигини олгач, ишга кириш учун сухбатга боради, барча синовлардан ўтиб, тақдирини ички ишлар органлари билан боғлайди.

**Т. Нажимов полковник Иноятов билан елкама-елка ишлади. Берилган топшириқларни тез, аниқ ва пухта бажаришга одатланди. Оғир ёнғинларни бартараф этишда бирга бўлди. Ўта муҳим тоифадаги объектлардаги бахтсиз ҳодисалар билан курашди.**

Тошкент вилояти сувсиз ҳудудлар сирасига киргани боис воқеа жойига сувни етказиб бериш жуда қийинчилик туғдирарди. Мирислом Иноятов ўз бошқаруви даврида бу оғир масалага ижобий ечим топганди. Ҳар бир туман (қисм) га биттадан ёнғин хавфсизлиги машинаси берилганлиги туфайли воқеа жойига ягона машина билан бориларди. Ва бу ўз-ўзидан ёнғинга қарши куч воситалари етишмаслигига сабаб бўлган. Ахир, битта машина билан ёнғинни ўчириш имконияти жуда паст эди. У эса бунга барҳам бериб, вилоят кесимидаги ҳар бир туманга камида учтадан машина жалб қилган. Полковник Иноятовни кўпчилик юқори мартабали раҳбарлар ибрат қилиб кўрсатган.

– Устоздан ҳамиша қарздорман. Мендан ҳеч нарсасини аямаган, билимларини, вақтини. Умрим давомида шу одамга ўхшашга интилдим. Сўзлашиш услубим, юришларим, гапириш оҳангларим ҳам устозимникидек бўлишини хоҳладим, хизмат тақозоси билан иш жойимни алмаштиришга тўғри келса, аввало учта нарсани ўзим билан олиб ўтаман, булар: биринчи туғилган неварамнинг сурати, мен учун қадрли болалигимдаги

ўйинчоқ бўлган елканли кемачам ва устозим Мирислом аканинг портретлари. Улар эшитадиган, ҳар бир жараёнга тўғри баҳо берадиган инсон эди. Агар фазилатларимнинг ҳеч бўлмаса 30 фоизи шу кишига ўхшаган бўлса, мен бахтли инсонман. Устознинг панд-насихатларини тўғри қабул қилиб, қўлида ишлаб кам бўлмадим, — дея устозини кўзларида ёш билан хотирлайди Тоҳириддин Нажимов.

Полковник М. Иноятов ёнғинларнинг олдини олишга эмас, балки ўчиришга масъул бўлган пайтлар, жуда кўп ҳолларда яқин шогирди Тоҳириддинни ўзи билан бирга олиб чиқиб, унга ўт ўчириш тактикаларини, ёнғинларнинг даражасини баҳолашни ва бу касбнинг майда икир-чикирларигача ўргатарди. Нажимов эса устозининг йўриқларига амал қилиб ўз ишининг ҳақиқий профессионалига айланганди. Шу боис уни республика бўйича катта ёнғинларга ҳам чақириб олишарди. Устози билан доимо фахрланишини, яхшиликларини ҳеч қачон унутмаслигини билдираркан, Т. Нажимов шундай қўшимча қилди: «Мирислом аканинг шогирдлари, дейишса, ҳамма ҳавас қилган. Чунки инсонийлиги жуда зўр эди. 2006 йилнинг 7 январидида қўлимда жон берган. Сўнги нафасгача бирга бўлганман. Жон бераётганларида лабларига сув теккизиб турганман. Устозимдан кейин уларнинг ишини ўша лавозимда давом эттирганман».

Полковник Мирислом Иноятов оилапарвар инсон бўлиб, асли касби ўқитувчи бўлган турмуш ўртоғи Гулнора опа билан икки ўғил, икки қизни вояга етказишган. Барча фарзандлари олий маълумотли. Катта ўғли Улуғбек Иноятов божхона тизимида хизмат қилиб, майор унвонида пенсияга чиқди. Полковник Тоҳириддин Нажимов устозининг кенжа ўғли Ёрқин Иноятовга ҳам устозлик қилиб, уни Қўриқлаш бош бошқармасида раҳбар бўлиб хизмат қилган йиллари ишга таклиф қилган. Ҳозирда майор Ёрқин Иноятов Миллий гвардия Назораттафтиш инспекциясида катта офицер лавозимида хизмат қилмоқда. Қизлари Динора ва Ирода ҳам бири тиббиёт тизимида, бири эса ИИБга қарашли «Нурли маскан» мактаб-интернатида сидқидилдан меҳнат қилишмоқда. 10 нафар невар, 2 нафар эвараларнинг сеvimли бувижониси Гулнора опанинг уйига ҳанузгача Мирислом акани хотирлаб шогирдлар келиб туришади.

**Аброр ПОЁНОВ,  
ўз мухбиримиз.**

Тошкент шаҳри.





ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК

## МУШТАРАК МАҚСАДЛАР ЙЎЛИДА

**Яқинда Ўзбекистон Республикаси ИИБ ҳузуридаги ЖИЭД бошлигининг биринчи ўринбосари, полковник Мансур Қодиров бошчилигидаги Ўзбекистон делегацияси Қирғиз Республикасида бўлди. Учрашувда Қирғиз Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги ЖИЭХ раиси Аскат Эгембердиев ва тегишли раҳбарлар иштирок этди.**

Ташриф давомида делегация аъзолари ЖИЭХ марказий аппарати фаолияти билан танишиб, Чуй вилоятидаги бир қанча объектларда бўлди. Молдовановка қишлоғида қамоқхона ходимлари ва маҳаллий аҳолининг фарзандлари учун реконструкция қилинган болалар боғчасини кўздан кечирган меҳмонларга кичкинтойлар ижодий чиқишларини тақдим этишди.

Сўнгра делегация аъзолари 31-сонли даволаш-ахлоқ тузатиш муассасаси ва 300 дан ортиқ ўринли кўп тармоқли шифохона, «Келечек» ва «Кўчма механизациялашган колонна» давлат корхоналарида бўлишди. Меҳмонларга ЖИЭХ муассасаларида ишлаб чиқарилган маҳсулотлар, жумладан, озиқ-овқат маҳсулотлари ва қурилиш материаллари намойиш этилди. Шунингдек, 2-сонли ахлоқ тузатиш колониясида тикувчилик ва новвойчилик йўналишидаги ишлаб чиқариш цехлари, маҳкумлар ўрта махсус таълим олаётган билим юрти билан ҳам танишилди.

Ташриф якунида меҳмонлар Адлия вазирлиги ҳузуридаги қўриқлаш ва конвой хизмати, ўқув маркази билан ҳам танишишди. Ҳарбий оркестр жўрлигида тантанали марш билан кутиб олинган делегация аъзоларига ЖИЭХ «ОМЕГА» махсус кучлари ўзларининг жанговар тайёргарлигини намойиш этишди.

Халқаро ҳамкорлик доирасидаги амалий ишларнинг узвий давоми сифатида Қозоғистон Республикаси ИИБ Жиноят-ижроия тизими қўмитаси раиси, полковник Тенизжан Джанибеков бошчилигидаги делегация расмий ташриф билан Ўзбекистон Республикасида бўлди.

Ташрифдан кўзланган мақсад маҳкумларнинг иш билан таъминланиши, уларни ижтимоий ҳаётга мослаштириш борасидаги илғор тажрибани ўрганишдан иборат. Шунингдек, маҳкумларни сақлаш шароитларини ҳамда ЖИЭМнинг таъмирланиши ва янги муассасалар қурилишини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилди.

Қозоғистон делегацияси вакиллари ташриф давомида 13-сонли жазони ижро этиш колониясида, Марказий тергов



ҳибсхонасида, 44-сонли манзил-колониясининг ишлаб чиқариш участкасида ва 42-сонли манзил-колониясининг фермасида бўлиб, маҳкумлар учун умумий таълим ва касб-хунарга ўргатиш тизимини такомиллаштириш борасида амалга оширилаётган ислохотлар натижалари билан тўлиқ танишишди.

Ташриф якунида пенитенциар хизматлар ўртасидаги ўзаро манфаатли ҳамкорлик бўйича келишиб олинди.

**Шахризод ШОКИРОВ,**  
капитан.



БИЗ КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИМИЗ!



## «GENTRA» БОШҚАРУВИДАГИ «ШЕР»

**Фуқаро Х.Х. Тупроққалъа тумани ҳудудида ўзига тегишли бўлган «Gentra» русумли автомашинасини маст ҳолда бошқариб бораётиб, йўлнинг қарама-қарши йўналишига чиқиб кетади. Ўз ҳудудида хизмат олиб бораётган туман ИИБ ЖХХ ҲПБ ҳуқуқ-тартибот маскани профилактика инспектори, катта лейтенант Баҳром Юсупов бу ҳолни кўриши биланоқ унга тўхташ ишорасини беради.**

Қарангки, мастлик таъсиридан «шер» қиёфасига кирган ҳайдовчи машинасини йўл ҳаракати қоидаларига зид равишда тўхтатиб, профилактика инспекторини ҳақоратлай бошлайди. Йўл-транспорт ҳодисаси содир этилишининг олдини олишга ҳаракат қилган профилактика инспектори унга бу хатти-ҳаракати қонунга хилоф эканини тушунтирмоқчи бўлади. Аммо Х.Х. ходимнинг қонуний талабини бажармасдан, қўпол ҳаракатларини давом эттиради. Шундан сўнг катта лейтенант Б.Юсупов дарҳол туман ИИБга хабар беради. Ҳодиса жойига етиб келган тезкор гуруҳ ходимлари зўравон ҳайдовчини тиббий кўрикка таклиф этишади. Унинг спиртли ичимлик истеъмол қилгани аниқлангач, дарҳол тегишли ҳужжатлар расмийлаштирилади ва у вақтинчалик сақлаш ҳибсхонасига жойлаштирилади.

Катта лейтенант Баҳром Юсупов ҳолат юзасидан терговга қадар суриштирув ишларини олиб боради. Вазиятнинг бу қадар жиддий тус олишини кутмаган ҳайдовчи жазодан қутулиб қолиш мақсадида Б.Юсуповга 1000 АҚШ доллари миқдорида пора таклиф қилади. Пора бериш жиноят экани ҳақидаги тушунтиришлар натижа бермайди. Ҳайдовчи осойишталик посбонини пора олишга ундашда давом этади...

Ўтказилган тезкор тадбир натижасига кўра, профилактика инспекторига «келишилган» пулдан ортиқча, яъни, 1500 АҚШ доллари миқдоридаги порани берган ҳайдовчи ашёвий далиллар билан қўлга олинди. Шу тариқа, ички ишлар органи ходимининг хизмат бурчига садоқати туфайли яна бир жиноий қилмиш фош этилди.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.

# QATAG'ON QURBONLARI – XALQIMIZ ARMONLARI

**XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillarida O'zbekistonda «O'n sakkizlar guruhi» «Inog'omovchilik», «Qosimovchilik», «Badriddinovchilik», «Milliy ittihadchilar» va «Milliy istiqlolchilar» va boshqa siyosiy to'qima ishlar natijasida o'zbek xalqining ko'plab yetuk farzandlari, ayniqsa, 1936–1938-yillardagi «Katta terror» to'liqida yuzlab taniqli davlat arboblari, ziyolilar, ulamolar va harbiylarning qatag'on qilinishi xalqimiz qalbida bitmas yara, o'chmas armon bo'lib qoldi.**

1938-yilning 4-oktabrida jadid bolarimiz – Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat kabi el ardog'idagi shoir va yozuvchilar, G'ozim Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Otajon Hoshimov, Majid Qodirov, Ziy Saidov kabi adabiyotshunos olimlar, birinchi o'zbek kinorejissyori va fotografi Xudoybergan Devonovlar qatl etildi. Eng achinarlisi, ularni o'limga hukm qilish haqidagi hujjat qatldan bir kun o'tib, 5-oktabrda rasmiylashtirib qo'yilgan.

**Harbiy kollegiyaning 1938-yil 4-oktabrdan 16-oktabrgacha bo'lgan sayyor yig'ilishlarida jami 507 nafar o'zbekistonlik siyosiy mahbus ustidan hukm chiqarildi. O'zbekistonda 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha 10700 nafar kishi qamoqqa olingan. Shundan 3613 kishi qatl etilgan bo'lsa, 7087 nafari sakkiz-o'n yil muddatga qamoqqa tashlandi. 1937–1953-yillarda mustabid tuzum tomonidan 100 mingdan ziyod xalqimiz vakillari qatag'on siyosatining qurboni bo'lgan. Ularning 13 000 nafari otib tashlangan, yana minglab kishilar nohaq quloq qilingan, surgunlarga jo'natilgan.**

Mustabid tuzum xalqimizning eng ilg'or vakillarini jismonan yo'q qilish, uzoq muddatlarga lagerlarga surgun qilish bilan cheklanmay, ularning oila-a'zolari va yaqinlarini ham ta'qib qildi. Hatto ularning nomlarini ham tarixdan o'chirishga urindi, yaratgan asarlari, chop etilgan kitoblarini ham taqsiqladi.

Qatag'onlar oqibatida xalqimiz endi kuchga to'lgan, o'z Vatani ravnaqi yo'lida hali katta ishlarni qilishi mumkin bo'lgan minglab yetuk kadrlaridan, asl o'g'lonlaridan ayrildi. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, harbiy, ilmiy, adabiy-madaniy salohiyatiga o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan darajada zarar yetdi.

Xo'sh, sho'rolar hokimiyatining ushbu qatag'onlardan ko'zlagan maqsadi nima edi? Bu siyosat qurboniga aylangan ziyolilar, jadid bobolarimizning «aybi» nima bo'lgan? Ular mavjud siyosatga qanday xavf solgan edi, degan savollar kishini chuqur o'yga soladi.

Eng boshidanoq yolg'onga asoslangan proletariat diktaturasi har qanday hur fikrga, muxolif qarashlarga tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lgan. Shu



bois sovet hokimiyatini tanqid qiluvchilar, uning chor hukumatidan oshib tushgan imperialistik siyosatiga qarshi fikr aytuvchi diniy yetakchilar va milliy intelligensiya vakillari ustidan nazorat o'rnatish, bu siyosatga tahdid solishi mumkin bo'lgan kuchlarni aniqlash, ularni ma'nan va jismonan yo'q qilish maqsad qilingan edi. Qatag'onlar, shuningdek, sovet hokimiyatining jamiyat ustidan total nazoratini kuchaytirish va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday norozilik yoki mustaqillikka intilishni ayovsiz bostirishga qaratilgan edi.

Eng qizig'i, hur fikrli oydinlarimizni mahv etish maqsadida turli aksilinqilobiy tashkilotlar qatag'on tuzumi buyurtmasi asosida markaz va uning jazo organlari tomonidan atayin ta'qib chiqarilgan. Buning orqasida ming-minglab begunoh insonlar shafqatsiz jazolangan, yosh umrlari xazon bo'lgan. Ularning avlodlari ham «xalq dushmani»ning bolalari sifatida jamiyatdan ajratilgan, hayoti ostin-ustun bo'lib ketgan.

Istiqlol yillarida milliy qadriyatlarni tiklash, tariximizni xolis va haqqoniy o'rganish, aziz siymolar xotirasini e'zozlash, madaniyatimiz va san'atimiz rivojiga hissa qo'shgan ijodkorlar faoliyati, ularning boy ma'naviy merosini tadqiq etish, targ'ib va tashviq qilish, tarixiy adolatni qaror toptirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Dunyoda global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o'zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahami-

yat kasb etayotgan bugungi davrda jadidlarning Vatan ozodligi va yurt taraqqiyoti borasidagi g'oyalari, ta'bir joiz bo'lsa, «qayta tiriltirish», ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga mashaqqatli kurashlar

chuqur o'rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalashdir.

Xususan, qarorning 3-bandiga asosan, har yili oktabr oyining birinchi haftasini mamlakatimizda Siyosiy qatag'on qurbonlarini yod etish

haftaligi sifatida nishonlash belgilandi.

Qarorga asosan, qatag'on qurbonlari, jumladan, jadidchilik harakati namoyandalarning hayoti va faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar, «O'zarxiv», Madaniy meros, Yoshlar ishlari agentliklari, Fanlar akademiyasi va boshqa vazirlik va idoralarga bir qator aniq vazifalar belgilab berildi. Qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalarning ilmiy-ijodiy faoliyatiga tegishli nodir kitoblar, qo'lyozma asarlar, tarixiy hujjatlar va boshqa materiallarni ta'mirlash hamda raqamlashtirish, audiovizual mahsulotlar tayyorlash, ularni internet tarmog'ida ommalashtirish, «Jadidlar.uz» elektron platformasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, davlat arxivlarida saqlanayotgan qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalariga oid muayyan arxiv hujjatlarini belgilangan tartibda maxfiylikdan chiqarish, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda uning hududiy bo'limlari ilmiy xodimlari uchun vazirlik va idoralarning idoraviy arxivlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish shular jumlasidandir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, xalqimizning milliy o'ziga xosligi, asrlar osha yashab kelayotgan qadriyatlari va madaniy merosini rivojlantirishga hissa qo'shgan jadidlar faoliyatini o'rganish o'zbek xalqining milliy g'ururini yuksaltirishga, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, jadidlar faoliyati va g'oyalari o'rganish xalqimizga o'z boshidan kechirgan achchiq tarixdan saboq olgan holda, ta'lim va milliy madaniyatni yuksaltirish, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ilg'or g'oyalarni hayotimizga keng joriy etish orqali rivojlangan dunyoda tenglar ichra teng bo'lib yashash imkonini beradi.

**Eibek NORMO'MINOV,  
IIV Muzeyi boshlig'i, mayor.**

**Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,  
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor,  
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,  
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.**

**Muhammad YUSUF.**

va minglab qurbonlar evaziga qo'lga kiritilgan istiqlolni, bugungi erkin, ozod va obod hayotimizni asrab-avaylash, qadrlash kerakligini anglatish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

**Bu zaruratni yaxshi anglagan davlatimiz rahbarining 2020-yil 8-oktabrdagi «Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoyishi yangi izlanishlar, amaliy chora-tadbirlarga keng yo'l ochdi. Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonovlarning «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlanishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 1 ming 200 dan ziyod siyosiy qatag'on qurbonlarining reabilitatsiya qilinishi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida katta voqea bo'ldi.**

Ushbu savobli ishlarning mantiqiy davomi sifatida joriy yil 19-iyulda Prezidentimizning «Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qarordan ko'zlangan maqsad tariximizning noma'lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan

QO'SHQANOTLAR

## BIR-BIRIGA SUYANCH, HAMMASLAK

Sirdaryo viloyati IIB boshlig'ining o'rinbosari – Tergov boshqarmasi boshlig'i, podpolkovnik Shahboz Ne'matjonov va uning turmush o'rtog'i, viloyat IIB Huquqiy statistika va tezkor hisob-ma'lumotlar markazi yetakchi mutaxassisi, podpolkovnik Gulnoza Ne'matjonova bilan gurunimiz o'z-o'zidan qovushib ketdi. Ularning, ayniqsa, «agar farzandlarimiz ham shu kasbni tanlashsa xursand bo'lamiz» degan so'zlari qalbdan o'ziga xos to'lqin hosil qildi. Bu o'n besh yil davomida jinoyatchilikka qarshi ne-ne tunlarni izlanishda o'tkazgan, yaxshi-yomon kunlarda bir-biriga yelkadosh bo'lgan qo'shganotlarning o'z kasbini nechog'lik sevishidan dalolat edi.

... Shahbozga IIV Akademiyasiga o'qishga kirish deyarli qiyinchilik tug'dirmadi. Barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, yelkasiga kursantlik pogoni taqilgach, u inson astoydil harakat qilsa, orzusiga albatta yetishishiga amin bo'ldi. Bu ishonch ushbu dargohda muvaffaqiyatli ta'lim olishiga ham ijobiy ta'sir qildi.

Akademiyadagi tahsil jarayoni qizg'in o'tar, ta-



niqli huquqshunos olimlar, shu kasbga umrini bag'ishlagan yetuk rahbar xodimlarning ma'ruzalarini tinglash juda qiziq edi. Ba'zan dars jarayoni qizg'in bahslarga ulanib ketardi. Ana shunday kunlarning birida Shahbozning e'tiborini ko'zlari yonib turgan xushrugi bir qiz tortdi. Uning o'rinli fikrlari, bahsda o'zini bosiq tutishi e'tiborga molik edi.

Xullas, ularning tanishuvi shu tarzda boshlandi. Qaran-

gki, bu tanishuv umr yo'llarini ham tutashtirdi. Akademiyani tugatgach, ikki yosh oila qurdi. Shahboz Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani IIB Tergov bo'limida tergovchi, Gulnoza esa Toshkent shahar IIBda xuddi shu lavozimda xizmatni boshladi. Ular Toshkent viloyatida istiqomat qilishar, har ikkalasi ham ishdan kech qaytardi. Lekin bu holat ularning o'zaro ahil-inoq yashashiga zarracha ta'sir qilmadi. Aksincha, xizmatdagi dastlabki

qiyinchiliklarni yengishda ular bir-biriga doim ko'mak berishar, bunday yelkadoshlik ko'pchilikning havasini keltirardi.

– Men har tomonlama baxtli oila vakilasiman, – deydi Gulnoza Ne'matjonova. – Orzumdagi kasbga va oilaga erishdim. Bunday mushtaraklik xizmatda va oilaviy hayotda juda qo'l kelmoqda. Nimagaki erishgan bo'lsam, bunda turmush o'rtog'imning o'rni katta.

Shahboz Ne'matjonovning otasi Ne'matjon Habibullayev o'ttiz yildirki advokatlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Huquqshunoslikka qiziqish o'g'liga otasiga havasdan boshlangan.

– Har bir ota uchun farzand kamoli – ulug' baxt, – deydi Ne'matjon Habibullayev. – Farzandim Shahbozjon bolaligidan ichki ishlar organi xodimi bo'lishni orzu qilardi. Intildi va orzusiga yetdi. O'g'lim va kelinim Gulnozaxonning erishayotgan yutuqlaridan doim quvonaman. Ular el xizmatida bo'lishni o'zlarining burchi deb bilishadi.

Shahboz va Gulnozaxon – baxtli oila sohiblari. Ularning uch nafar o'g'il farzandi bor. Birgalikda Sherdiyov, Imronbek, Kamronbeklarni tarbiyalayotgan bu insonlarga hamma havas bilan qaraydi. Ular agar qayta umr berilsa, yana shu kasbni, yana bir-birini tanlashlarini aytishganida, o'z kasbiga va oilasiga sadoqatning yuksak namunasiga guvoh bo'ldik. Bu o'rnak olsa arziyidigan yuksak fazilatdir.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

AYOL VA JAMIYAT

## FOYDALI MEHNAT NIZOLARGA BARHAM BERADI



**Ayol baxtli bo'lsa, xotirjamlikda hayot kechirsa, oilalarda sog'lom ma'naviy muhit yaratiladi. Ammo ayrim holatlar bu jarayonga salbiy ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Shunday vaziyatlarda ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar muammolarga duch kelgan, tazyiq va zo'ravonliklarga uchragan xotin-qizlarga yordamga oshiqishadi.**

Oltinsoy tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, katta leytenant Zuhra Qo'zimurodova ham tumandagi ayollarga o'z yordamini ayamaydi. Uning

sa'y-harakati bilan nizolarga barham berilib, oilalar yarashtirilmog'ida.

Hududda 88426 nafar xotin-qiz istiqomat qiladi. Qolaversa, mavjud 47324 ta oilaning tashvishi ham

kam emas. Xotin-qizlar orasida ziyoli qatlami ham, kasb-hunarga ega bo'lganlari, hatto tadbirkorlari ham talaygina. 325 nafar ayol tadbirkor bugun tumanda nafaqat o'zini, balki mahalladoshlarini ham ish bilan ta'minlagan. Biroq ishsizlar ham yo'q emas. Asosan ishlash istagida bo'lgan xotin-qizlarning imkoniyat darajasi o'rganilib, ularning bandligini ta'minlash bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqildi. Ishsiz ayollarni mavsumiy va doimiy ishlarga joylashtirish, yer maydonlari ajratish va tomorqadan unumli foydalanish orqali o'zini o'zi band qilish choralari ko'rildi.

– Oilalardagi aksar muammolar ishsizlik va nosog'lom muhit natijasida yuzaga keladi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Shu bois imkon qadar ishsizlikka barham berish maqsadida 5-bosqich «Ayollar daftari»ga kiritilgan 4469 nafar xotin-qizning muammolarini hal etish va ularni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha «yo'l xaritasi» ishlab chiqildi. Natijada ayrimlariga imtiyozli

kreditlar berilgan bo'lsa, ayrimlari kasb-hunarga o'qitildi. Shu tariqa 3497 nafar ayolning bandligi ta'minlandi.

Katta leytenant Z. Qo'zimurodovanning sa'y-harakati bilan mahalla faollari va profilaktika inspektorlari ko'magida «Turmush» tadbirlari o'tkazilib, notinch oilalar «xonadonbay» tarzda o'rganildi va 126 ta himoya orderi berildi. Oilaviy qadriyatlarini mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot ishlari natijasida esa 70 ta nizoli oila yarashtirildi. Eng muhimi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan xotin-qizlar o'rtasidagi jinoyatchilik 60 foizga kamayishiga erishildi.

Albatta, bitta oilani tiklash mashaqqatli jarayon. Ammo xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor buni uddalayapti. Yosh bo'lishiga qaramay, hamkor tashkilotlar bilan yaxshi aloqa o'rnatib, hamjihatlikda ish olib borayotgani ijobiy natija bermoqda.

**Feruz RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Урок духовности и просвещения

# ЖЕРТВЫ РЕПРЕССИЙ – НЕСБЫВШИЕСЯ НАДЕЖДЫ

**История Узбекистана периода тоталитарного строя, установленного в первой половине XX века, неразрывно связана с трагическими страницами репрессий, унесших жизни невинных людей.**

Репрессии коснулись всех слоев общества. Среди жертв режима были политические деятели, представители духовенства, рабочие, دهкане, цвет интеллигенции.

По сфабрикованным обвинениям репрессированы истинные сыны Родины, лидеры движения центральноазиатского джадидизма, в числе которых Абдурауф Фитрат, Абдулхамид Чулпан, Абдулла Кадыри и др., выступавшие за модернизацию общества. Говоря об их судьбе, Президент Шавкат Мирзиёев подчеркнул, что они «вели народ по пути прогресса и отдали свои жизни во имя свободы нации».

Только в 1937–1953 годах в жернова массовых репрессий попали более 100 тысяч соотечественников. 13 тысяч расстреляны, тысячи отправлены в ссылку.

Однако на этом репрессии не закончились. В 80-х годах по обвинениям «десантников Центра» по так называемым «хлопковому», «узбекскому» делам подверглись следствию 40 тысяч жителей республики.

С обретением страной независимости началась масштабная работа по восстановлению исторической справедливости. Значимым событием стало создание в 1999 году фонда «Шахидлар хотираси». 12 мая 2000 года на берегу канала Бозсу в Юнусабадском районе столицы был открыт мемориальный комплекс Памяти жертв репрессий.

**В 30-е годы здесь на отдаленной окраине Ташкента был пустынный овраг, образованный руслом канала. Жители близлежащих махаллей называли его «Алвасти кўприк», вкладывая значение «мост злых духов», место захоронения без погребальных обрядов. По несколько раз за ночь сюда подъезжали машины, раздава-**

**лись оружейные залпы. Расстрельные команды сбрасывали тела в овраг и наспех засыпали глиной.**

**Сегодня склоны бывшего карьера покрыты травой и деревьями. На площади 17 гектаров раскинулся мемориал. Комплекс состоит из парка, музея и ротонды с символическим надгробием из нефритового камня, на котором начертано: «Память о тех, кто погиб за Отечество, будет жить вечно».**

По инициативе Президента Шавката Мирзиёева в настоящее время в регионах функционируют отделения Государственного музея Памяти жертв репрессий. «В нынешние мирные и свободные дни вспоминать имена наших героических предков, чтить их священную память – это и наш долг, и обязанность, – заявил глава государства. – Поэтому мы восстанавливаем честь и достоинство наших соотечественников». В 2021–2024 годы Верховный суд Узбекистана реабилитировал более 1200 жертв политических репрессий. «Это означает, что справедливость не может быть сломана, а правда все равно возторжествует», – подчеркнул Шавкат Мирзиёев.

Постановление Президента от 19 июля 2024 г. на качественно новый уровень подняло деятельность по увековечению памяти соотечественников. Документом утвержден состав Республиканской комиссии, предусмотрены масштабные исследования, сбор и систематизация архивных материалов, воспоминаний; расширение сотрудничества с зарубежными музеями, библиотеками; обеспечение пополнения Государственного музея Памяти жертв репрессий, его отделений, Государственного музея наследия джадидов сведениями, докумен-



«Джадиды. Письма в Туркестан»

*В Tashkent City Mall проходит мультимедийная выставка, повествующая о судьбах 73 студентов с момента их отправки в Германию вплоть до последовавших за этим драматических событий.*

*Основная часть экспонатов представлена впервые. Специалисты Фонда развития культуры и искусства проводили исследования в стране и за рубежом. В экспозиции материалы из частных коллекций родственников и близких джадидов, Национальной телерадиокомпании, Государственного музея Памяти жертв репрессий, Национального архива кинофотофонодокументов, Национальной библиотеки Узбекистана.*



тами. Будет продолжено издание многотомника «Қатағон қурбонлари». Одобрено предложение о ежегодном проведении в октябре Недели памяти жертв политических репрессий. Фонду «Нуроний», Ассоциации махаллей Узбекистана, общественному фонду «Шахидлар хотираси», Республиканскому центру духовности и просветительства, Агентству по делам молодежи поручено организовывать духовно-просветительские мероприятия, встречи «трех поколений» в целях воспитания юношей и девушек в духе почитания великих предков. Определены задачи по пополнению новой литературой, образцами изданий электронной платформы «Jadidlar.uz».

Совету Министров Каракалпакстана, хокимиятам областей и города Ташкента совместно с иными организациями и ведомствами на основе решения Республиканской комиссии поручено выявить конкретные места, где родились и жили лица, ставшие жертвами репрессий, установить на их домах мемориальные доски, организовать в махаллях и школах «Уголки памяти жертв репрессий».

Подчеркивая значение данной деятельности, Президент заявил: «Это должно стать ценностью, общенациональным движением».

**Радик ТУМΠΑРОВ,**  
кандидат педагогических наук.



## ШОГИРДЛАР АРДОҒИДА

**Адҳамбек Мамадалиев 1974 йилда Андижон вилояти ИИБ Жиноят қидирув бўлими кичик инспектори лавозимида хизматни бошлаган. Хизмат билан баробар Андижон давлат университетини тамомлаган. Кейинги фаолиятини вилоят ИИБ жиноят қидирув бўлимида давом эттириб, Балиқчи ва Андижон туманларида хизмат қилган.**

Майор унвони билан 1996 йилда пенсияга чиққан лавҳамиз қаҳрамони рафиқаси Шаҳзодахон ая билан бирга уч нафар фарзандни вояга етказди. Тўнғич ўғил Нуриддин – ота изидан бориб, жиноят қидирув хизматида 15 йилдан ортиқ фаолият олиб борди. Ҳозирда Мамадалиевларнинг катта оиласида тўққиз неvara ва икки эвара вояга етмоқда.

– Жиноят қидирув бўлими бошлиғи, полковник Ҳасанбой Хўжаев менга устозлик қилган, – дея эслайди фахрий. – У менга



ҳар қандай ҳолатда ҳам тўғри қарор қабул қилишни, жиноятни очишда ҳатто майда-чуйдаларга ҳам эътибор қаратишни ва шошилинч хулоса чиқармасликни ўргатди. Бундай сабоқлар кейинчалик жиноятчиларни қидиришда бир неча бор қўл келди. Генераллар – Ғофуржон Раҳимов, Ботиржон Парпиев, полковниклар

– Геннадий Гавриличев, Владислав Гуртовенко каби инсонлар билан ишлаш бахтига муяссар бўлганман.

Айниқса, тезкор ходим бўлиб ишлаган даврим ёдда қолган. Ўша пайтда ички ишлар органлари бўлинмаларида техника ва алоқа воситалари тақчил эди. Шунга қарамай, ҳодиса жойлари-

га йўловчи машиналарда бориб, бажарилган иш ҳақида автомат-телефонлар орқали маълумот берардик.

Бирор кўнгилсиз воқеа юз берса, ёрдам сўраб, биринчи навбатда, жиноят қидирув бўлимига мурожаат қилишган. Одамларнинг муаммоларини ҳал қилишда ёрдам бериш бизнинг бурчимиз эди. Қийинчиликларга қарамай, бўлимимиз жиноятларни фош этиш кўрсаткичи бўйича вилоятда биринчи учликка кирган. Бутун жамоанинг фидойилиги ва аҳиллиги туфайли ҳар доим юқори натижаларга эришганмиз. Оддий инспектордан тортиб то бошлиққача ҳар биримиз ўз ишимизни масъулият билан бажарардик.

Яқинда фахрийни 80 ёшга тўлиши муносабати билан вилоят ИИБ Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги подполковник Давронбек Юсупов ва шогирдлари қутлашди.

– Ўтган умримдан миннатдорман, шу касбни танлаганимдан, халқимга хизмат қилиб шу кунларга етганимга шукрона қиламан, – дейди Адҳамбек ота.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
ўз мухбиримиз.

Андижон вилояти.

### HALOLLIKNI SHOR QILGAN XODIMLAR

## JARIMANI TO'LAMAYMAN DEB...



**Halollikni har kim o'zligidan, fitratidan kelib chiqib talqin qiladi. Kim uchundir mehnat bilan topilgan non halol. Kim uchundir bu faqat ayrim o'rinlarda rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidadek gap. Yon atrofimizda sodir bo'layotgan voqeliklarni kuzata turib, to'g'ri yashash, jamiyat qonun-qoidalariga rioya qilish har birimizning a'molimizga aylanishi shart degan xulosaga kelasan kishi.**

Chortoq tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, mayor Eldorbek Ne'matov Zafar Diyor nomli mahallada yashovchi I.M. «Damas» rusumli avtomashinani tegishli hujjatlarsiz boshqarib kelayotganligini aniqladi. Fuqaroga nisbatan qonuniy chora ko'rish maqsadida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, avtomashinasini vaqtincha jarima maydonchasiga joylashtirgandan bir hafta vaqt o'tgach, fuqaro avtomashinasini jarima maydonchasidan chiqarib berish va o'ziga nisbatan qonuniy chora ko'rmaslik evaziga 400 ming so'm pul berishini aytib, unga pora taklif qildi. Albatta, xodim bu taklifdan o'zini yo'qotib qo'ymadi, fuqaroni dastlab tartibga chaqirdi, bu xatti-harakati qonunga xilofligini tushuntirdi, lekin u tushunishni istamay, xodimga qayta-qayta qo'ng'iroq qilib, iltimos qilishda davom etaverdi...

IIB tomonidan tezkor-tadbir davomida fuqaro I.M. xodimning xizmat xonasida unga 400 ming so'm pullarni pora tariqasida berayotgan vaqtda ashyoviy dalillar bilan ushlanib, tegishli tartibda hujjatlar rasmiylashtirildi.

Shunga o'xshash voqea «Do'stlik» mahallasi hududida xizmat olib borayotgan vaqtda ham sodir bo'ldi. Tungi xizmatga jalb qilingan Elyor Ne'matov mast holatda «Nexia-3» rusumli avtomashina boshqarib kelayotgan fuqaro A.S.ni to'xtatib, uning ulovini jarima maydonchasiga joylashtiradi. Katta miqdorda jarima to'lashdan ko'ra, ichki ishlar organi xodimi bilan kelishib qo'ya qolgan ma'qul, deb o'ylagan fuqaro Eldorbekning qaysar, murosasiz, o'z kasbiga sadoqatli ekanini bilmagan chog'i. Xullas, tushuntirishlar kor qilmagach, mayor E.Ne'matov qat'iy chora ko'rmasa bo'lmasligini tushunib yetdi. Eldorbekning xizmat xonasida 400 AQSH dollarini berayotgan vaqtda A.S. qo'lga olindi.

Xulosa o'rnida aytmoqchi bo'lganimiz, jamiyatda qonunlarga bo'ysunish tinch va osoyishta hayot garovi ekanini har bir fuqaro his qilishi shart. O'z kasbiga sadoqatli, vijdonli xodimning bu xatti-harakati ana shu yo'ldagi sa'y-harakatlarning amaldagi ifodasidir.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

1 ОКТЯБРЬ – ЎҚИТУВЧИ ВА МУРАББИЙЛАР КУНИ

## ИЛК САБОҚ

Шароф Рашидов тумани ИИБ 2-сонли ИИБ ХПГ профилактика инспектори, майор Вали Азизов 14 йиллик хизмат тажрибасига эга. Бу йилларда у кўплаб ходимларга мураббийлик қилди. Айти вақтда «Жиззахлик» маҳалласининг профилактика инспектори, лейтенант Достон Эшқуловга ҳам касб сир-асрорларини ўргатяпти.

Достон яхши эслайди, майорнинг илк сабоғи хизматда ҳамиша хушмуомала бўлиш кераклиги тўғрисида бўлган. Шу билан бирга, суҳбатдош психологиясига мос ёндашиш, хизматга оид маълумотларни сир тутиш, ариза ва мурожаатлар билан ишлашга доир тавсияларини билдирган.

Табиийки, майор Вали Азизовнинг ўзи ҳам бир кунда мураббий даражасига етмаган. Чунончи, 2010 йилда Жиззах давлат педагогика институтини тамомлаб, Мирзачўл тумани ИИБ ҳузуридаги қўриқлаш хизмати таркибида соҳадаги фаолиятини бошлади. Орадан 4 йил ўтгач, Фориш туманининг 93,5 минг гектар майдонни эгаллаган «Қизилқум»

маҳалласи профилактика инспектори лавозимига тайинланган лавҳамиз қаҳрамони ўшандан буён ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимида.

Таъкидлаш жоиз, у айнан «Қизилқум»да жиноятчиликни жилавланинг ҳадисини олди. Бинобарин, чўлда йўл топиш, бири-бирдан олисда жойлашган аҳоли манзилларида жамоат хавфсизлигини таъминлаш, тирикчилигининг асоси чорвачилик бўлган аҳолини қонунбузарлардан ҳимоялаш сирларини ўзлаштирди. Жумладан, бир сафар 148 бош майда шохли молнинг ўғирланиши билан боғлиқ жиноятни фош қилса, бошқа сафар 3 та ўғирлик қўй ортилган «Lacetti»ни хизмат



автомашинасида қувиб, тўхтатишига тўғри келди.

Айти вақтда майор Вали Азизов Шароф Рашидов туманининг 6 минг 341 киши истиқомат қиладиган «Совунгарлик» маҳалласида осойишталикка масъул. Бу жараёнда асосий эътибори ички ишлар органлари ҳисобида турадиган 14 нафар, маъмурий назорат остидаги 1 нафар, муқаддам судланган 19 нафар, жазони

очиқда ўтаётган 11 нафар, ичкиликка ружу қўйган 4 нафар шахс ҳамда 3 та низоли оиланинг аъзоларига қаратилган.

Жорий йилнинг ўтган даврида у 20 кишини ишга жойлаштирди. Шу каби профилактик тадбирлар маҳалланинг «яшил» мақомини маҳкам тутишига омил бўлаётир.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Жиззах вилояти.

### ■ Кашкадарьинская область

## ХОРОШИЕ СОТРУДНИКИ – ГЛАВНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ

В здоровом теле – здоровый дух. Следуя этому изречению, заместитель начальника Миришкорского районного отдела внутренних дел по духовно-просветительской работе майор Хабибулла Мухаммадиев вместе с личным составом на стадионе детско-юношеской школы начал день с небольшой разминки и отработки приемов рукопашного боя.

Затем, проследовав в рабочий кабинет, еще раз сверился с планом, составленным накануне вечером. Провел инструктаж для личного состава и следственной группы. Напомнил о необходимости строгого соблюдения служебной дисциплины, законности, указал на важность внимательного отношения при общении с гражданами, предупредил,

чтобы находящиеся под управлением сотрудников автотранспортные средства были в исправном состоянии, поставил задачи перед оперативно-следственной группой.

Далее майор изучил документы, представленные старшим инспектором группы по работе с несовершеннолетними и молодежью ОПП СОБ РОВД лейтенанта Ж. Хамидовой.

Во второй половине дня в целях изучения бытовых условий побывал в доме старшего специалиста отдела миграции и оформления гражданства Миришкорского РОВД лейтенанта Хуршида Мухторова. Дал разъяснения по видам социальной поддержки сотрудников органов внутренних дел, рассказал, как можно ими воспользоваться.

В конце рабочего дня майор проведет ветерана из махалли Янгирарык Курбонбоя Чориева. Каждый день службы Хабибуллы Мухаммадиева не похож на предыдущий. Помимо выполнения основных обязанностей, связанных с ор-

ганизацией эффективной работы подразделения, ежедневно к нему обращаются сотрудники и граждане. Как руководитель он должен выслушать каждого, помочь в разрешении тех или иных вопросов.

– Обращения касаются самых различных вопросов, их надо рассмотреть объективно, глубоко вникая в суть дела, – говорит майор Х. Мухаммадиев. – Кадровая работа требует хорошего знания трудового законодательства, практики его применения, правил документационного обеспечения личного состава, владения навыками электронного делопроизводства и др. Делюсь накопленным опытом с начинающими сотрудниками. Приятно

видеть, как растут в профессиональном плане молодые коллеги, а также те, кого довелось принять на службу. Ведь именно хорошие сотрудники главный потенциал любого коллектива, и создание благоприятных условий для их работы – одна из задач кадровиков.

Примерно таков ежедневный распорядок дня заместителя начальника РОВД.

Недавно майор Хабибулла Мухаммадиев стал победителем областного этапа конкурса «Самый лучший пропагандист духовно-просветительской работы» и получил право принять участие в республиканском финале конкурса.

**Содик РАХИМОВ,**  
соб. корр.



Служба профилактики

## В ОТВЕТЕ ЗА МАХАЛЛЮ

**В махалле Ишонч, расположенной в тридцати километрах от центра Гулистанского района, инспектором профилактики является старший лейтенант Хусан Баратов. Тех, кто обрел в жизни достойное место, заслужил уважение добросовестным трудом, инспектор считает своими близкими помощниками.**

Проблемные семьи, хотя их всего 2-3 процента от общей численности населения, требуют особого внимания инспектора. К примеру, двадцатисемилетний З. У. имеет судимость, ни на какой работе долго не задерживался, любитель выпить, разведенный. На его попечении несовершеннолетний сын. Хусан Баратов часто посещает дом З. У. Несколько раз помог с трудоустройством, однако...

Тогда инспектор, посоветовавшись с «махаллинской семеркой», решил направить мужчину на принудительное лечение от алкоголизма. З.У. организовали десятидневный курс терапии в Гулистанском наркодиспансере. После выписки мужчина несколько остепенился, женился. Супругов трудоустроили на текстильное предприятие. Положительные изменения проявились и в успеваемости сына-школьника. Год усилий не



**На снимке:** старший лейтенант Хусан Баратов со старейшиной махаллы Файзулло Урауловым.

пропал даром – в семью вернулось благополучие.

Работать с семьями по методу «хонадонбай» дело непростое. К примеру, в одной семье насчитывается семь человек. Четверо взрослых, трое детей. Было решено привлечь старших к

предпринимательству. Глава семейства некогда занимался ремонтом автомобилей. Оформили аренду мастерской. На выделенные 30 миллионов сумов приобрели оборудование. За пять-шесть месяцев семья обрела стабильный

источник дохода. Двое парней выучились востребованному ремеслу.

...Когда Хусан Баратов начинал свою деятельность инспектором профилактики, махалля Ишонч находилась в категории красных. Ему поручили изменить кри-

миногенную ситуацию в лучшую сторону.

Поначалу пришлось нелегко, потребовалось время. Совместно с «махаллинской семеркой» Хусан приложил большие усилия. Стремился быть полезным людям, находиться рядом в дни радости и печали. Так постепенно он обрел признание и уважение, что стало основой для достижения успеха.

Хусан Баратов родился в 1990 году в Сырдарьинском районе. Успешно окончив общеобразовательную школу, поступил в Гулистанский государственный университет. Работал учителем в общеобразовательной школе № 18 Сырдарьинского района. После тщательной подготовки и успешного прохождения испытаний в 2020 году был принят на службу в ОВД.

Хусан Баратов вместе с супругой растит двоих дочерей. Несмотря на занятость, находит время, чтобы заниматься с детьми, уделяет особое внимание их воспитанию.

**Холида  
АЛИЖОНОВА.**

Сырдарьинская область.

«Черный мак-2024»

## РЕЗУЛЬТАТИВНЫЕ РЕЙДЫ

**В городах и районах Бухарской области проводятся оперативно-профилактические мероприятия «Черный мак-2024» по выявлению незаконного оборота наркотических средств.**

В ходе оперативного мероприятия сотрудниками УКД ОВД города Бухары установлено, что гражданин 1998 года рождения выращивал на своем подворье растение каннабис. Еще один случай выявили сотрудники Гиждуванского РОВД. В ходе досмотра вызвавшего подозрение автомобиля «Ласетти» в салоне обнаружена марихуана весом 1,12 грамма.

В отдаленном Алатском районе области также ведутся оперативные мероприятия. В махалле Халифа при гражданине Б. А. обнаружено 1,17 грамма высушенной марихуаны, готовой к употреблению. Сотрудниками областного УВД в Бухаре задержан местный житель при попытке продажи 1,88 грамма гашиша.

Операция «Черный мак-2024» продолжается.

**Умид БАРАКАЕВ,**  
лейтенант.

Бухарская область.



## ҚОНУНЧИЛИКДАГИ ЯНГИЛИКЛАР

## ХУҚУҚИЙ БЎШЛИҚНИ ТЎЛДИРИБ

Маълумки, Ўзбекистон Республикасининг «Пробация тўғрисида»ги қонуни Президентимиз томонидан жорий йилнинг 7 август куни имзоланди. Пробация фаолиятини тартибга солувчи барча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мазкур қонунга бирлаштирилди.

Унда ИИБ ЖХХ Пробация хизматининг ваколатлари белгилаб берилди. Жумладан, давлат органларига, бошқа ташкилотларга ёки мансабдор шахсларга пробация тўғрисидаги қонунчилик бузилишлари, шунингдек, уларнинг сабабларини ва содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни бартараф этиш ҳақида бажарилиши шарт бўлган тақдимномаларни киритиш ҳуқуқи кўзда тутилди.

Янги қонунда Пробация назоратидаги шахсларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳам белгиланди. Унга мувофиқ, ушбу шахслар пробация хизматининг чақирувига биноан узрли сабабларсиз келмаган ҳолларда, ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмаси томонидан мажбурий келтирилади.

Пробация назоратидаги шахсга электрон кузатув воситаси (браслет) туман (шаҳар) пробация бўлинмаси бошлиғининг қарори асосида қўлланилади. Унга яшаш, иш ва ўқиш жойини ўзгартириш, тегишли маъмурий ҳудуд доирасидан ташқарига чиқиш бўйича розилик бериш ваколати пробация бўлинмаларига берилди.

Пробация назоратидаги шахснинг хорижга чиқиш паспорти мавжуд бўлса, жазо муддати тугагунча вақтинча пробация ходими томонидан олиб қўйилган бўлди. Транспорт воситаларини бошқариш ҳуқуқидан маҳрум этилган пробация назоратидаги шахслар транспорт воситаларини бошқарганлик учун маъмурий жавобгарликка тортилганида, бу ҳақда йўл



ҳаракати хавфсизлиги хизмати ходимлари Пробация бўлинмаларига ахборот юборишади.

Назоратдаги шахсни 4 соат ичида мастлик ҳолатини аниқлаш учун тегишли тартибда текширув ўтказилиши юзасидан аниқ тартиб ўрнатилди. Шартли ҳукм қилинган шахс 3 кун муддат ичида ўзининг яшаш, иш ва ўқиш жойи ўзгарганлиги ҳақида пробация бўлимига хабар бериши шартлиги қатъий белгиланди.

Шу билан бирга, Қонунда Пробация назоратидаги шахсларни ижтимоий мослаштириш йўналишидаги

чора-тадбирлар белгилашиб, уларни амалга ошириш бўйича тартиб жорий этилди. Хусусан, пробация назоратидаги шахс ҳисобга қўйилган кундан бошлаб 1 ой муддат ичида ишга ёки ўқишга жойлашиши, ҳар 3 ойда бир мартаба мутахассис-психолог суҳбатидан ўтказилиши кўрсатиб ўтилди. Энди пробация бўлинмалари 18 ёшдан ошган, умумий ўрта таълим тўғрисидаги ҳужжатларга эга бўлмаган назоратдаги шахсларга экстернат тартибда якуний аттестациядан ўтишига ёрдам беришади.

Шу билан бирга, пробация назоратидаги шахсларга нисбатан интизомий жазо чораси қўлланилиши учун қайси ҳолатлар асос бўлиши кўрсатиб ўтилди. Суд томонидан белгиланган тақиқларга (чекловларга) ёки мажбуриятларга риоя этилмаганлиги, пробация хизмати ходимининг қонуний талаблари бажарилмаганлиги шулар жумласидандир. Бундан ташқари, Қонуннинг 71-моддаси билан айрим қонунларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритилди.

Хулоса қилиб айтганда, мазкур Қонун Пробация соҳасидаги қонунчиликда мавжуд бўлган ҳуқуқий бўшлиқни тўлдириб, айрим зиддиятларни бартараф этишга хизмат қилади. Хусусан, ИИБ ЖХХ Пробация хизмати ва унинг жойлардаги бўлинмалари фаолияти самарадорлигини оширишда муҳим омил бўлади.

**Азиза КЕНЖАЕВА,**  
ИИБ ЖХД Пробация  
бошқармаси  
МТБ инспектори,  
подполковник.

## БИР ЖИНОЯТ МУҲОКАМАСИ

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, оғир турдаги жиноятларга жуда кўп ҳолатларда ичкиликбозлик сабаб бўлади. Шу иллат туфайли яқинда Фарғона шаҳрининг Ал-Хоразмий кўчасида содир этилган жиноят натижасида бир инсон ҳаётдан бевақт кўз юмди.

## ҚОТИЛГА АЙЛАНГАН УЛФАТ

Дастлабки суриштирувларда маълум бўлишича, жиноятда жабрланган ва гумонланувчи шахс аввалига кўришиб, «отамлашган». Улфатчилик якунига етгач, спиртли ичимлик таъсирида сархуш ҳолатда уйлари тарқалиб кетишган. Бироқ улардан бири уйига борганидан сўнг мастлик оқибатида оилавий келишмовчилик туфайли юзага келган эски адоватлари ёдига тушиб, жаҳл отига минади ва қўлига пичоқ олиб яна ортига қайтади. Нима қилаётганини ўзи билмаган фуқаро бир неча дақиқа олдин бирга улфатчилик қилган шахсни уйдан чақириб, пичоқ билан тан жароҳати етказди. Жабрланувчи эса олган оғир жароҳати натижасида воқеа жойида вафот этади.

Мазкур мудҳиш жиноят вилоят ИИБ раҳбарияти ҳамда кенг жамоатчилик иштирокида муҳокама қилинди. Муҳокамада сўз олганлар ичкиликбозлик иллатининг оғир оқибатлари ҳақида сўз юритдилар. Ушбу жиноятга ҳам ичкиликбозлик асосий

сабаб бўлгани қайд этилди. Маҳалла қадриятлар бешиги, тарбия ўчоғи деган тушунчаларга эътибор қаратилиб, кейинги даврда ушбу тушунчалар бироз унут бўлаётгани, кўни-қўшнилари ва қариндош-уруғлар ўртасидаги муросасизликлар кўпайиб бораётгани афсус билан тилга олинди. Фуқаролар ўртасида юзага келаётган муаммолар ва зиддиятларга ечим топишда эса маҳалла фаоллари, хусусан, маҳалла еттилиги аъзолари янада фаол бўлиши зарурлиги қайд этилди. Ичкиликбозликка берилган шахсларни тиббий реабилитация қилиш борасидаги ишларга жиддий эътибор қаратиш кераклиги таъкидланди.

Шунингдек, муҳокама жараёнида маҳалла фаоллари, нуруний оқсоқолларнинг фикрлари, ўғит ва маслаҳатлари ҳам эшитилди. Мутасаддилар олдида аниқ вазифалар қўйилиб, фуқаролар огоҳликка чақирилди.

**Абдувосит СИДИҚОВ,**  
ўз мухбиримиз.  
Фарғона вилояти.

## БИЗ КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИМИЗ!

## ИСИ ЧИҚДИ

«Мис қозоннинг миси чиқар, беркитганнинг иси чиқар» мақолини Сирдарё вилояти Ховос тумани «Соҳибкор» маҳалласида яшовчи Н.Б.га нисбатан бемалол қўллаша бўлади. Жумладан, у ўзига тегишли «Ласетти» русумли ав-

тоуловнинг олд ён ойналарини тегишли рухсатномасиз қорайтириб олди. Балки у қонун ҳимоячилари мазкур ўзгаришни эътиборсиз қолдиришига ишонгандир, балки «келишамиз» услуги иш беришига умид қилгандир.

Аммо Н.Б. ўйла-гандек бўлиб чиқмади. Чунинчи, «Зомин-Суффа» йўналишида ҳаракатланаётган пайти уни вилоят ИИБ ЖХХ ЙХХБ ЙПХ батальони 1-сафарбар гуруҳи ЙПХ инспектори сафдор Беҳзод Жўрақулов тўхтатиб, автомашинанинг олд ён ойналарининг қорайтирилишига оид рухсатноманинг мавжудлигини текширди. Ўз навбатида, ҳайдовчи бундай ҳужжатнинг йўқлигини билдириб, келишишга урина бошлади.

Табиийки, сафдор рад этиб, баённома расмийлаштириш ҳамда автоуловни жарима майдонида жойлаштириш чораларини кўрди. Мазкур жараёнда Н.Б. маъмурий баённомани бекор қилиш ва автоуловни жарима майдонидан чиқариб бериш эвазига 100 АҚШ доллари миқдорида пора таклиф қилди. Ҳайдовчининг бу ҳаракати қонунга зид эканлигини инспектор қанчалик тушунтирмасин, қоидабузар унга пул тиқиштиришда давом этди.



ИИБ ШХББ Жиззах вилояти бўйича бўлими ҳамда прокуратура ходимлари ҳамкорлигида ўтказилган тезкор тадбир давомида, қонун ҳимоячисига 100 АҚШ доллари берган вақтда қўлга олинди. Хуллас, ҳайдовчи, нафақат маъмурий ҳуқуқбузарлиги, балки пора бериш билан боғлиқ қонунбузарликни содир этганлиги учун ҳам жавобгарликка тортиладиган кўринади.

**Ўз мухбиримиз.**

Жиззах вилояти.





► CHEMPION BILAN SUHBAT

## LAZIZBEK MULLOJONOV: VATAN BAYROG'INI BALAND KO'TARGANIMDAN FAXRLANAMAN!

Shuni quvonch bilan aytish joizki, millat qahramonlari orasida Farg'ona viloyati ichki ishlar boshqarmasi Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadining o't ochib qo'llash guruhi komandiri, katta leytenant Lazizbek Mullojonov ham bor edi.

Tarixiy g'alabaga erishgan chempion bilan uning bolaligi, ustozlari va olimpiada taassurotlari haqida suhbatlashdik.

– Lazizbek, sizning sportga qiziqishingiz qanday boshlangan? Oilangizda ham sportchilar bormidi?

Otam Hasanjon Husanov «Quvasoysement» AJda bo'lim boshlig'i, onam Dilafuz Husanova maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Bolalikda sport muhitida katta bo'lganman, chunki oilamiz a'zolari sportni juda yaxshi ko'rishadi. Boks sport turiga qiziqishimga amakimning o'g'li – professional boksch, 2000, 2004-yillardagi Olimpiya o'yinlari ishtirokchisi, ikki karra jahon chempionati sovrindori Sherzod Husanov sababchi bo'lgan. U ilk ustozim bo'ladi.

– Qaysi sport maktablarida shug'ullangansiz? Ustozlaringiz kim?

– Dastlab Quvasoy shahridagi bolalar va o'smirlar sport maktabiga qatnay boshlaganman. Keyinchalik Farg'ona viloyati yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabining boks bo'yicha tajribali murabbiysi Alisher To'ychiyev qo'lida shug'ullanishni davom ettirdim. Murabbiylarim yordamida juda ko'plab respublika va xalqaro darajadagi musobaqalarda sovrindor bo'ldim. Shu orada Qo'qon davlat pedagogika institutida jismoniy madaniyat yo'nalishida tahsil oldim. 2021-yilda Farg'ona viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadiga xizmatga qabul qilindim. Hozirda ushbu otryadda o't ochib qo'llash guruhi komandiriman.

– Olimpiada bahslariga tayyorgarlik qayerda va qanday kechdi?

– Tayyorgarlikning dastlabki bosqichlari Toshkent viloyatining Angren shahridagi Yangiobod shaharchasida, tog'li sharoitda bo'lib o'tdi. Uchinchi, yakuniy tayyorgarlik jarayoni esa Fransiyaning Nansi shahrida tashkil etildi. Shu yerda yakuniy tayyorgarlikdan o'tgach, Parijga yo'l oldik. Nansida tayyorgarlikdan o'tish bilan birga, Fransiyaning ob-havosi va iqlimiga to'la moslashib ham oldik. Bu esa bahslarda bizga juda katta foyda berdi.

– Olimpiada bahslarida qaysi raqibingiz bilan bo'lgan jang siz uchun og'ir kechdi?

– Aslida sportchi uchun ringda oson jangning o'zi



LAZIZBEK  
MULLOJONOV

BOKS,  
-92 KG

Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan o'ttiz uchinchi yozgi Olimpiada o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilar nimalarga qodir ekanligini yana bir bor amalda isbotlashdi.

bo'lmaydi. Har bir jang bu katta mas'uliyat degani. Shu bois har bir raqibni chuqur o'rganib, puxta tayyorgarlik bilan ringga tushamiz. Olimpiadadagi birinchi raqibim italiyalik Aziz Muhiddin, yarim finalda esa tojikistonlik Davlat Boltayevga qarshi janglar bir-muncha og'ir kechdi.

– Olimpiadaning taqdir-lash marosimida shohsupaga ko'tarilganingizda ko'z'laringizga yosh keldi. O'shanda nimalarni his qildingiz?

– To'g'ri aytdingiz, bu quvonch ko'z yoshlari edi. Oltin medalgacha mashaqqatli yo'lni bosib o'tdim. Mening g'alabam tufayli Vatanim bayrog'i ko'tarilib, davlatimiz madhiyasi yangradi. Yuragimni to'liqlantirib yuborgan Vatan tuyg'usi sababli ko'zlarimdan quvonch va shukronalik yoshlari oqdi. Shohsupaga chiqib, yurt bayrog'ini baland ko'tarish bu har bir sportchining eng oliy maqsadi bo'lsa kerak. Ana shunday baxt nasib etganidan cheksiz faxrlanaman!

– Bugungi erishgan yutuq va muvaffaqiyatlaringiz uchun ko'proq kimlardan minnatdorsiz?

– Erishgan yutuqlarimda juda ko'p insonlarning hissi bor, deb hisoblayman. Avvalo, ota-onam, oila

a'zolarim, ustoz-murabbiylarim, xalqimizning duosi va qo'llab-quvvatlashi menga katta yordam berdi. Eng muhimi, muhtaram yurt-boshimiz biz yoshlarga katta ishonch bildirib, doimo marra-ni baland olishga undamoqda. Davlatimiz rahbarining yuksak ishonchi bahslarda menga doim kuch va madad berib turdi. Fursatdan foydalanib, olimpiada bahslarida meni qo'llab-quvvatlab, muxlislik qilgan barcha vatandoshlarimga, ichki ishlar organlaridagi hamkasblarimga, sport ixlosmandlariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

– Kelgusi rejalaringiz qanday?

– Rejalarim bisyor. Xabaringiz bor, olimpiadadan qaytganimizdan so'ng, erishgan yutuqlarimiz munosib e'tirof etilib, Prezidentimiz farmoniga ko'ra, «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoni bilan taqdirlandim. Ushbu yuksak mukofotga javoban, sport sohasidagi yutuqlarim salmog'ini yanada ko'paytirish va ichki ishlar organlari xodimi sifatida xalqimizga munosib xizmat qilish niyatidaman.

O'z muxbirimiz  
Abduvosit SIDIQOV  
suhbatlashdi.

Farg'ona viloyati.



### TOSHKENT VILOYATI

SOHA FIDYOISI

Yo'llarda harakat xavfsizligini bekamu ko'st ta'minlash maqsadida hushyorlikni yo'qotmasdan, sergak holatda faoliyat olib borayotgan shijoatli va jonkuyar posbonlardan biri Oqqo'rg'on tumani IIB yo'l-patrol xizmati inspektori, safdor Hayotbek Nabiyevidir. Tizimdagi o'n besh yillik faoliyatining so'nggi besh yilini mazkur sohada o'tkazib kelayotgan lavhamiz qahramoni ustozlariga hurmat ko'rsatib, shogirdlarini tarbiyalashdan charchamaydi.

O'z kasbiga mehri baland bo'lgan Hayotbek haydovchilarning yo'l harakati qoidalariga rioya etishini ta'minlash maqsadida joriy yilning o'tgan davri mobaynida 1600 ga yaqin qoidabuzarliklarni aniqladi. Shu bilan birga, jinoyat sodir etib, sud va tergov organlaridan qochib yurgan 2 nafar qidiruvdagi shaxsni aniqlashga muvaffaq bo'ldi.



★ Указ и его исполнение

## ПОДДЕРЖАТЬ ОСТУПИВШИХСЯ

Согласно Указу Президента страны «О помиловании группы лиц, отбывающих срок наказания, чистосердечно раскаявшихся в содеянном и твердо вставших на путь исправления» 15 осужденных – жители города Джизака, Шараф-Рашидовского, Бахмальского, Галляаральского, Дусликского и Зааминского районов – освобождены от отбывания наказания.

В рамках реализации Указа приняты меры по возвращению помилованных к семье и близким, оказанию им содействия в социальной адаптации, привлечении к полезному труду.

Помилованным выделена разовая материальная помощь. Восемь граждан трудоустроены. Одному оказано содействие в получении банковского кредита

для создания мастерской по изготовлению мебели. Уделяется внимание вопросам правовой и психологической поддержки.

За каждым помилованным закреплены аксакалы махалли. Сотрудники службы пробации и системы профилактики правонарушений проводят разъяснительные беседы.



■ Самаркандская область

## СЕКРЕТ ПРОСТ

**Ночью рядовой Фаррух Ашуров вместе со служебно-розыскной немецкой овчаркой по кличке Пальма патрулировали территорию. Послышались непонятные звуки, собака подала сигнал и направилась к источнику шума.**

Позже выяснилось, что неизвестный мужчина пробрался в магазин техники. Он уже успел спрятать в карманы четыре сотовых телефона, но был задержан на месте преступления.

– Пальма – собака по следорозыску. Ей запрещается бурно выражать эмоции, чтобы своими действиями не спугнуть злоумышленника. Учув подозрительное, она подает сигнал – спокойно садится или ложится, – говорит рядовой Ашуров. – Последний инцидент с кражей в магазине произошел недавно и помог задержать преступника на месте. Но не всегда удается найти воришку сразу. Иногда на это уходят дни.

На счету у Пальмы множество успешно выпол-



ненных заданий. С начала года рядовой Ашуров вместе с четвероногой помощницей около 40 раз выезжали на места про-

исшествий, с их участием раскрыты 7 преступлений.

Фаррух Ашуров родился в Акдарьинском районе в семье служащих. Мать,

Мелихон Муродова, долгие годы работала учительницей, отец, Боймурод Ашуров, – фермер. Фаррух старший ребенок

в семье. Еще в юности он решил служить Родине.

Службу в питомнике служебно-розыскного собаководства Управления охраны общественного порядка УВД Самаркандской области Ашуров начал в 2011 году, после окончания колледжа по подготовке олимпийского резерва. Все эти годы инспектор-кинолог тренирует собак обучает их командам и необходимым навыкам.

Стоит отметить, что у тандема рядового Ашурова и Пальмы лучшие показатели выявляемости преступлений. Мы попросили специалиста поделиться секретом успеха.

– Особых тайн нет. Главный секрет простой – надо хорошо относиться к собаке. Если это делать, то наша служба будет в радость, – резюмировал Ф. Ашуров.

**Замира БАЛТАЕВА,**  
соб. корр.



ИНСОН ҚАДРИ УЧУН

## КЎНГИЛ ХОТИРЖАМЛИГИ ҲАЛОЛЛИҚДА

Орамизда билиб-билмай жиноят кўчасига кириб қолганлар ҳам йўқ эмас, албатта. Зеро, адашганларга имкон бериш, кечиримлилик ва уларни яхши маънода қўллаб-қувватлаш бағрикенг халқимизга юқтирилган инсоний фазилатларнинг бир кўринишидир.



– Айни пайтда ҳудудимиз бўйича жами 426 нафар назоратдаги шахс жазо муддатини ўтаб келмоқда, – дейди Оқдарё тумани ИИБ ЖХХ Пробация гуруҳи катта инспектори, капитан Элёр Жабборов. – Шундан 103 нафарини ахлоқ тузатиш ишлари, 7 нафарини шартли ҳукм қилинганлар, 51 нафарини муайян ҳуқуқдан маҳрум қилинганлар, 101 нафарини озодликни чеклаш, 164 нафарни муддатидан илгари шартли озод этилганлар

ташкил этади. Бугунги кунга қадар тузалиш йўлига ўтган 113 нафар назоратдаги шахс эса муддатидан илгари шартли равишда озод этилди. Уларнинг жамиятда фаол иштирокини таъминлаш яна қайта жиноят содир этмаслигининг олдини олиш мақсадида керакли профилактик ишлар олиб борилмоқда.

Оқдарё туманида «Ишга марҳамат» меҳнат ярмаркаси, «Тадбиркор ва ёшлар учрашуви» сингари тадбир-



ларда ҳисобда турган, назоратдаги ёшларнинг бандлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Жумладан, яқин кунларда бўлиб ўтган меҳнат ярмаркасида оталиққа олинган ёшлардан Сирож Раджабов, Феруз Махмудов, Зафар Толибов ва Нурмуҳаммад Самандаровлар ишли бўлди.

– Хато қилмаслик учун ҳар бир қадамни ўйлаб босиш керак экан, – дейди Нурмуҳаммад Самандаров. – Бўлмаса хато қилиб, жабрини инсон-

нинг ўзи тортаркан. Мен ҳам билиб-билмай жиноят кўчасига кириб қолдим. Ва қилмишимга яраша жазо тайинланди. Айбимга икромлик, қилган қилмишга пушаймонликда жазо муддатининг ярмини панжара ортида ўтказдим. Кейин жазоим енгиллаштирилиб, ахлоқ тузатиш ишлари жазоси тайинланди. Бунинг учун ҳукуматимиздан ниҳоятда миннатдорман. Ҳозирда полиз маҳсулотлари етиштириладиган «Ислому Худойқулов» фермер хўжалигида ишлаяпман.

Ҳа, инсон кўнглига ҳалоллик, тўғрилиқ ва меҳнатсеварлик хотиржамлик бағишлайди. Бугун орамизда кимлардир ўзининг қилган хатоларини англаб етиб, тўғри йўлни танлаб, ҳаётини изига солаётгани яхши ҳолат. Зотан, Нурмуҳаммад сингари қалб амри билан ҳаловатга интилиб, меҳнат қилаётганларнинг ҳар бир амалида туман ИИБ Пробация гуруҳида хизмат олиб бораётган фидойи ходимларнинг ҳамда мутасаддиларнинг муносиб ўрни бор.

НУҚТАИ НАЗАР

## НАДОМАТГА КУН ҚОЛМАСИН

Нодир (исмлари ўзгартирилди) оз эмас, кўп эмас умрининг олти йилини панжара ортида ўтказди. Қилмишидан чин дилдан пушаймонлиги инобатга олиниб, жазосининг ўталмай қолган қисми енгиллаштирилди ва озодликка чиқди. У ҳозир туман ИИБ пробация гуруҳи рўйхатида туради. Маҳалладагиларнинг оқибати йўқолмасин, уни «Сен жиноятчисан», дея яққалашмади, балки адашган йигитни қўллашди. Омонбой фермер ўз деҳқон хўжалигидан иш берди. Нодир ўқарикдан эгат оралаб сув тараркан, шу тахлит хатолари кўп йигирма беш йиллик умри ҳам худди шу сувдек зумда оқиб ўтиб кетганини англади. Ўзига-ўзи пичирлаб, сувдан-ку экинлар яшнамоқда, бироқ мен бугунгача нималар қилишга улгурдим? Кимгадир наф келтирдимми, аксинча, ҳаётим чигаллашиб, изидан чиқиб кетди. Бунинг сабаблари нимада экан, дея савол берди.

Бирдан болалик нигоҳларида қотиб қолган хотиралар: отасининг ичкиликка муккасида кетгани, айнан шу сабаб ота-онаси ўртасидаги доимий келишмовчилик, рўзғорда муттасил етишмовчиликлар, ёшлик завқи ортидан ўз уйидаги жанжаллардан бешиб кўчага чиқиб кетганию қўли қалпларга қўшилиб, осон йўл билан пул топиш дардида оёғи ерни ҳис этмай ҳовлиққан пайтлари эсига тушди. Ота-онасининг ҳам кетма-кет бу ёруғ оламини тарк этганига икки йилдан ошди. Ёлғиз фарзанд бўла туриб, уларни сўнгги йўлга кузатиш насиб қилмаганини ўйлаб, сиқилди. Айни дамда ёнида суйнадиган бирорта яқин инсони йўқ. Унинг кўзига ҳаммасини сабр,

ирода билан изига солишдан бошқа таскин ҳам, ечим ҳам кўринмасди...

Ачинарлиси, Нодир хато қилмаслиги, темир панжара ортида унинг гулдек умри хазон бўлмаслиги, жамиятда ҳамма қатори рисоладагидек яшаши мумкин эди. Бунда очиқ ва аччиқ бир ҳақиқат, яъни унинг носоғлом оилада дунёга келганини тан олишимиз керак. Зотан, оила муқаддас даргоҳ, унинг осойишта ва мустаҳкамлиги фарзанд тарбиясида ниҳоятда муҳим. Айниқса, борлиққа саволнамо нигоҳи ила боққан мурғак жонга тўғри тарбия бериш, унда ўзаро ҳурмат, ишонч ва келажакка иштиёқ уйғотишда ота-онанинг роли беқиёс. Бола табиатига хос жиҳат, у бўш қолди де-



гунича вақтини бекорчи нарсаларга сарфлайди. Бунинг учун бола кун тартибини мазмунли ташкил этишни ўйлаб кўриш, назоратга олиш, рағбатлантириш ва қўллаб-қувватлаши лозим. Чунки ҳар бир рағбат болада ўз-ўзига бўлган ишонч мустаҳкамлайди. Бола билан самимий мулоқот, меҳр, эътибор

кўрсатиш унинг руҳиятига ижобий таъсир этади. Ҳар бир ота-она оилада фарзандларининг энг биринчи ва яхши эшитувчи эканлигини унутмаслиги даркор. Бунда бола қобилиятини шакллантириш – сен бундан ҳам яхши ишларга қодирсан, ироданга ишонаман, дея қўллаб-қувватлашдан бошланади. Қолаверса, унинг яқин ўртоқлари кимлар эканлиги ҳам билиб қўйиш алоҳида бир жиҳат. Тарбияда болани камситмаслик, ўзини ожиз деб ҳисоблашига йўл қўймаслик ва муҳим қарорларни мустақил қабул қилиш ва унинг учун жавобгар бўлиш имконини бериш келажакда шахс бўлиб шаклланишида муҳимдир. Меҳрибонлик, ҳалоллик, ҳар қандай вазиятда ҳам дўстона муносабатда бўлиш, ирода, сабр ва шижоат, ўз ўрнида мулоҳазакорлик йигит-қизларнинг камолот йўлининг муҳим устунларидир.

Шунинг учун, фарзандларимиз билан тиллашайлик, диллашайлик. Токи, юқорида тилга олганимиз юраги афсусга тўла Нодирга қисматдошлар эмас, бахтлилар, бахтиёрлар кўпайсин. Сўнгги пушаймон ҳамisha душмандир.

Саҳифа материалларини ўз муҳбиримиз Гулноза ТУРҒУНБОЕВА тайёрлади.



ИИВ АКАДЕМИК ЛИЦЕЙЛАРИДА

## БАҒРИКЕНГ МУРАББИЙНИНГ ҲАЁТИЙ САБОҚЛАРИ

ИИВ Фарғона академик лицейи ўқув бўлими мудирини, тажрибали педагог, истеъфодаги подполковник Артик Эминовга ёшлар талпиниб, унинг ширин сўзи, маслаҳатларини эшитишга муштоқ бўлиб туришади.

– Меҳнат фаолиятимни 1985 йилда таълим соҳасида бошлаб, 10 йил ўқитувчилик қилганимдан сўнг, ички ишлар органларида хизматни 1995 йилда Қўштепа тумани ИИБда вояга етмаганлар масалалари бўйича инспектор лавозимида бошлаганман, – дейди лавҳамиз қахрамони. – Шундан сўнг Қўштепа ва Олтиариқ туманида турли соҳавий хизматларда фаолият кўрсатдим. Барибир табиатимда ўқитувчиликка бўлган меҳр устун келиб, 2007 йилда ИИВга бўйсунувчи Фарғона шаҳридаги Сержантлар таркибини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш марказида давом эттирдим. Шу ерда оддий ўқитувчиликдан марказ бошлиғининг шахсий таркиб бўйича ўринбосари даражасигача бўлган лавозимларда хизмат қилиб, соҳани муносиб кадрлар билан тўлдиришга, ёшларнинг билим ва салоҳиятини оширишга озми-кўпми ҳисса қўшдим.



2017 йилдан лицейда махсус фанлардан дарс бераётган ва бугунги кунда ёшларнинг орзу ва интилишларига қанот бериш билан бирга, ўқув бўлими мудирининг сифатида педагогларга ҳам услубий ёрдам кўрсатиб келаётган. А. Эминов ҳамон чарчоқ нималигини билмайди.

Лавҳамиз қахрамони 1996 йилда Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия институтини тамомлагани боис спорт мураббийси сифатида ҳам катта билим ва салоҳиятга эга. Унинг етакчилигида ИИВ Фарғона академик лицейи ёшлари кўплаб нуфузли мусобақаларда муваф-

фақиятга эришмоқда, «чемпион» деган шарафли номга сазовор бўлганлар эса талайгина. Масалан, 2023–2024 ўқув йилида академик лицейда 12 нафар Ўзбекистон чемпиони, 3 нафар спорт устаси, 1 нафар Осиё чемпиони таҳсил олди.

Жорий йилда академик лицей ва профессионал таълим муассасалари ўқувчилари ўртасида ўтказилган «Баркамол авлод» спорт мусобақаларининг республика финал босқичида белбоғли кураш тури бўйича мазкур лицей ўқувчилари умумжамоа ҳисобида фахрли биринчи ўринни қўлга киритди.

– Устозимиз биз шогирдларга дарс машғулотларидан ташқари, жуда кўплаб ҳаётий сабоқлар ҳам беради, – дейди 2-курс ўқувчиси Полвонзода Бўтабоев. – Масалан, ҳақиқий ички ишлар органлари ходимига хос фазилатлар, фуқаролар билан мулоқот одоби, касбий тайёргарлик каби йўналишларда қимматли маслаҳатларини оламиз. Бизни ҳаммиша китоб ўқишга, ҳалол ва камтар бўлишга чорлайди. Ана шундай бағрикенг, шогирдлар устозимиз борлигидан фахрланамиз!

**Абдусовит СИДИҚОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.

«БАРҚАРОР ТУРМУШ» ПРОФИЛАКТИК ТАДБИРИ

## ОИЛА ТИНЧ БЎЛСА...

Аёлларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, уларга шарт-шароитлар яратиб бериш, муаммоларини бартараф этиш, хотин-қизлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар ва жиноятларни барвақт аниқлаб, олдини олиш мақсадида ташкил этилган «Барқарор турмуш» профилактик тадбири Қашқадарё вилоятида ҳам зўр уюшқоқлик билан ўтказилмоқда.

Тадбир бошлангандан буён вилоятимиз миқёсида ҳудудий профилактика инспекторлари ва маҳалла фаоллари билан ҳамкорликда 5395 та оила ўрганилди. Бу жараёнда фарзандини ёлғиз тарбиялаётган, тазйиқ ва зўравонликдан жабрланган, носоғлом ҳаёт тарзини кечираётган, узоқ муддатга яшаш жойидан чиқиб кетган ва қайтиб келган аёллар билан профилактик ишлар олиб борилди. Шунингдек, аниқланган муаммоларнинг акса-

рият қисми ижобий ҳал қилинди. Жумладан, низоли оилаларда яшовчи 113 нафар хотин-қизга озик-овқат маҳсулотлари, 116 нафарининг вояга етмаган фарзандларига кийим-кечаклар, 61 нафарига тикув машинаси, 59 нафарига даволаниш учун бепул йўлланма берилди, 78 нафарига имтиёзли кредитлар ажратилди. 116 нафар аёлнинг бандлиги таъминланди ҳамда тазйиқ ва зўравонликдан жабрланган 9 нафар хотин-қиз вилоят Аёлларни реабилитация қилиш ва



мослаштириш марказига жойлаштирилди.

Ўрганишлар давомида аниқланган шаръий никоҳ асосида яшаётган оилалардан 56 тасининг никоҳи қонунийлаштирилди. 175 та низоли оиланинг нотинчлигига барҳам берилиб, 118 та оила бузилишдан асраб қолинди. Худди шунингдек, нотинч оилаларда

яшаётган 199 нафар аёлга ҳимоя ордерлари расмийлаштирилди.

Тадбир давомида жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш мақсадида жойларда ишчи гуруҳлар томонидан йиғилиш ва муҳокамалар ўтказилиб, барқарор турмушга замин ҳозирланмоқда. Ишонамизки, мазкур йўналишда олиб

борилаётган кенг қамровли амалий ишлар хотин-қизларнинг ҳақ-ҳуқуқлари ишончли ҳимоясини таъминлашга, пировардида, оилалар тинчлигини мустақамлаш ва жамият ривожланишига катта ҳисса бўлиб қўшилади.

**Замира РУСТАМОВА,**  
подполковник.

Қашқадарё вилояти.



МЕН СЕВГАН АСАР

## БУ КИТОБНИ ШУНЧАКИ ЎҚИБ БЎЛМАЙДИ



Болалигимда қўлимга қандай китоб тушса ҳам, уни ўқиб кўришга ҳаракат қилардим. Суҳбатдошимга қизиқ бўлмаса-да, китоб мазмунини гапираверардим. Табиатан ҳушчақчақлигим туфайлими, воқеа жараёнларини муболаға билан бўрттириб ҳикоя қилиб берадиган одатим ҳам бор. Мактабда энг яхши кўрган фаним адабиёт бўлган. Бунда устозим Гулшан Каримованинг ҳиссаси катта. У киши болаларнинг феъли, ўзлаштириш даражасига қараб топшириқлар берар, дарсга қизиқтиришнинг ўзига хос усулларидан фойдаланарди.

Тақдир тақозоси билан ички ишлар ходими бўлдим. Аммо китобдан, адабиётдан воз кечмадим. Энг яхши кўрган асарим Ўткир Ҳошимовнинг «Тушда кечган умрлар» романи. Бу асарни шунчаки ўқиб бўлмайди. Унда воқеалар ривожини совуқ куз тасвири билан бошланиб, совуқ куз тасвири билан якунланади. Бу эса ўзига хос бадиий сюжет – муқаддима ва хотиманинг сирли боғлиқлигини ҳосил қилади.

Асар афғон уруши даврларини ўз ичига олади. Бош қаҳрамон Рустам исмли ёш, навқирон йигит. Уруш қатнашчисининг ҳаёти мисолида ўша даврнинг қолоқ сиёсати, мустамлакачилик, ўзбек халқининг бошига тушган ноҳақ жирканчликлар, сўз ва фикр эркинлигининг топтали-

ши, инсон қадрининг сариқчақалик аҳамияти йўқлигини намоён этувчи ҳолатлар китобхон эътиборини янада ўзига тортади. Ҳақиқатан ҳам, қатағон йиллари, совет ҳукуматининг қора сиёсати Рустамдек йигитнинг ҳаётини барбод қилибгина қолмай, унинг яқинларини, ҳаттоки, севикли турмуш ўртоғини ҳам бадбахт қилди. Қанчадан-қанча оилалар бу золим сиёсатнинг қурбонига айланди.

Ушбу китобни ўқиган ҳар бир ўқувчи бугунги тинч ва фаровон ҳаётимизга, осойишта замонамизга шукроналар айтиши, шубҳасиз.

**Динара ЖЎРАҚУЛОВА,**  
катта лейтенант.

Навоий вилояти.

ИНСОНПАРВАРЛИК НАМУНАСИ

## «МЕН ОНАМНИНГ БАҒРИДАМАН»



– Мустақиллик арафасида эълон қилинган афв этиш тўғрисидаги фармон кўплаб оилаларга қувонч ва шодлик олиб кирди. Афв қилинган шахслар орасида туманимизнинг 4 нафар фуқароси ҳам бор, – дейди пойтахтнинг Яшнобод тумани ИИОФМБ Пробация бўлими бошлиғи, подполковник Эрпўлат Мўлдаташов. – Улар озодликдан маҳрум қилиш жазосини ўташдан муддатидан илгари шартли равишда озод қилинган.

Афв этилганлар орасида вояга етмаган, 17 ёшга тўлган Абдуқодир Ходжаев ҳам бор. У гиёҳвандлик воситалари савдосига аралашиб қолгани боис жазо ўтаётган эди.

– Қилмишим учун қонун олдида жавоб бердим, – дейди Абдуқо-

дир. – Президентимиздан мени ҳам авф этганликлари учун беҳад миннатдорман. Ҳозир, йўлимга кўз тикиб, кунни тунга улаб яшаган онаизоримнинг бағридаман.

Ўрни келганда айтиб ўтиш керак, мени ҳеч ким яккалаб қўйгани йўқ. Айниқса, маҳалладаги ёшлар етакчиси мен билан тиллашиб, ўзининг фаол ёш дўстлари сафига қўшди. Энг қувонарлиси, ўқишимни тиклаб беришди, 216-мактабнинг 11-синфида ўқияпман. Яхши ўқишга, келажақда юртимиз тараққиётига ўз ҳиссамни қўшадиган касб танлашга ваъда бераман ва шу мақсадим сари ҳаракат қиламан.

**Адолат ФАЙЗИЕВА,**  
ўз мухбиримиз.

Тошкент шаҳри.

ИИВ ҚОРОВУЛ ҚЎШИНЛАРИДА

## МАТОНАТ ВА ШИЖОАТ БЕЛЛАШУВИ

Ҳарбий хизматчилар ўртасида анъанавий тарзда ўтказиб келинаётган «Довюрак жангчи» интенсив синовларининг бу йилги босқичи Қашқадарё вилоятида жойлашган 7533-ҳарбий қисмга қарашли «Қўнғиртоғ» дала ўқув майдонида бўлиб ўтди.

Ўзаро тажриба алмашиш ва малака ошириш ҳамда ҳарбий хизматчиларнинг жисмоний ва жанговар шайлигини янада ошириш мақсадида ташкил этилган ва ўттиздан ортиқ шартларни

ўз ичига олган уч босқичли беллашувларда ҳар бир иштирокчининг шижоат, матонат ва жанговар руҳ билан амалга оширган ҳаракатлари ҳакамлар ҳайъати томонидан ҳолисона баҳолаб борилди.

Энг яхши натижаларни қайд этган 22 нафар ҳарбий хизматчилар ғолибликни қўлга киритиб, уларга «Довюрак жангчи» кўкрак нишони ва дипломлар тантанали равишда топширилди.



## SHIFOBAXSH MEVALAR

Kuz kelib, havo harorati tushishi natijasida shamollash kasalliklari avj oladi. Bunday paytda organizmni viruslardan himoya qilish hamda immunitetni mustahkamlash zarur. Ona tabiatimiz har qanday dardga davosi bilan biz insonlarni siylab keladi. Agar o'zingizni va yaqinlaringizni viruslardan himoya qilmoqchi bo'lsangiz, quyidagi shifobaxsh mevalarni muntazam tanovul qilishingizni tavsiya etamiz.

**Behi** o'zining shifobaxsh xususiyatlari bilan mashhur bo'lgan foydali meva. U qon aylanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Eng asosiysi, shamollashga qarshi xususiyatga ega. Shuningdek, undan turli shirinliklar, sharbatlar tayyorlash mumkin. Behi sharbati yo'talni davolash uchun foydali. Ana shunday shifobaxsh ichimlikni uy sharoitida tayyorlash juda oson. Buning uchun bir kilocho behi mevasi ikki litr suv bilan to'ldiriladi, keyin tayyor bo'lganiga qadar qaynatiladi. Ta'bga qarab asal qo'shiladi. Tayyor bo'lgan ichimlikni choy singari issiqligida ichish lozim. Immunitet uchun ichimlikdan kokteyl sifatida lazzatlanish o'rinli. Buning uchun uni sovuq holicha ichsa bo'ladi.

**Olma** quvvat manbai hisoblanadi. U yoshlikni uzaytiradi, kasalliklar bilan kurashishga yordam beradi. Uning eng foydali xususiyati ichaklarda yashovchi foydali bakteriyalar uchun yaxshi

ozuq-ovqat bo'lgan eruvchan tolaning yuqori miqdoridir. Qolaversa, S, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, R, E vitaminlariga, marganes, kaliy minerallari va temir moddasiga boy. Shifokorlar kaliyning qon bosimini me'yorlashtirishi, tish emali va suyak to'qimalarini mustahkamlashi tufayli olma iste'moli organizm uchun foydali ekanligini ta'kidlab turishadi. Tarkibidagi pektin moddasi organizmdan ortiqcha xolisterin chiqib ketishiga ko'maklashadi, qand kasalligi paydo bo'lishi xavfini kamaytiradi. Yana yuz terisi rangini tiniqlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ko'pchilik olmaning po'stini archib,

keyin iste'mol qilishga odatlangan. Biroq, tadqiqotchilar buning aksini tavsiya qilishmoqda. Sababi, olma po'stlog'ida qonni ortiqcha xolesterindan tozalovchi elementlar hamda saraton hujayralari o'sishini sekinlashtiruvchi oksidantlar mavjud ekan. Yana mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, miyaga o'rnashib, doim kayfiyatni xira qilib turadigan voqea-hodisalarni unutish uchun xushbo'y olmani hidlash va to'yib-to'yib iste'mol qilish lozim. U kishining ish qobiliyatini oshiradi. Umuman olganda, oshqozon-ichak xastaliklarida, yo'g'on ichakning surunkali va o'tkir yallig'lanishida, dizenteriyada, yurak-qon tomir xastaliklarida aziyat chekuvchilar uchun foydali. Bundan tashqari, ozish niyatida parhez qiluvchilarga ham olma iste'moli tavsiya etiladi.



## ДАРИТ БОДРОСТЬ, ПРОДЛЕВАЕТ МОЛОДОСТЬ

**Двигательная активность и физические упражнения – мощный фактор, позволяющий успешно противостоять процессам старения.**



Умеренные физические нагрузки:

- поддерживают физическую и умственную работоспособность;
- способствуют рациональной работе всех систем организма (сердечно-сосудистой, дыхательной, эндокринной, иммунной и др.);
- повышают устойчивость к различным заболеваниям;
- стимулируют обмен веществ, снижают уровень холестерина и сахара крови, уменьшают риск развития атеросклероза, гипертонической болезни, сахарного диабета и их осложнений;
- нормализуют вес за счет сжигания калорий и предотвращают отложение избыточного жира;
- сохраняют и укрепляют мышечный тонус, подвижность суставов, прочность и эластичность связочного аппарата;
- улучшают координацию движений;
- снимают головные боли, головокружение;

• уменьшают раздражительность и беспокойство, снимают стресс, улучшают настроение.

Внедрить физическую нагрузку в жизнь можно на бытовом уровне.

**Ходьба** (прогулка) – это просто, бесплатно, интересно и полезно для сердца, суставов, спокойного сна.

**Езда на велосипеде** – тренирует общую выносливость организма, поддерживает здоровье легких, укрепляет осанку.

**Плавание** – укрепляет все мышцы, поддерживает здо-

ровье позвоночника и успокаивает.

**Подвижные игры** – волейбол, бадминтон, футбол. Это тренировка разных групп мышц.

**Работа в саду или огороде** – тренирует мышцы рук и спины. Тишина и окружающая природа положительно влияют на психическое здоровье.

Чем бы вы ни занимались, делайте это в своем ритме. Главное, чтобы физические нагрузки не доставляли дискомфорта. Желательно заниматься разными видами физической активности не менее 8-10 часов в неделю. Оптимальный вариант их выполнения – когда пульс не превышает 120-150 ударов в минуту, продолжительность выполнения – 40-60 минут, а частота повторений – 3-5 раз в неделю.



■ Республика Каракалпакстан

## ОБРЕСТИ ДОСТОЙНОЕ МЕСТО В ЖИЗНИ

В стране уделяется особое внимание вопросам обеспечения гендерного равенства, всесторонней поддержке женщин, повышению их роли в обществе. Одной из мер в этом направлении стало учреждение в органах внутренних дел должности инспектора по вопросам женщин.



За минувшее время инспекторами проделана определенная работа по защите прав соотечественниц, решению их проблем, предупреждению преступности. В числе лучших сотрудников можно назвать старшего инспектора по вопросам женщин ОПП СОБ Шуманайского РОВД старшего лейтенанта Кумисай Бекманову.

За последнее время старший лейтенант К. Бекманова выявила 79 женщин, подвергшихся притеснениям и насилию, которым выданы охранные ордера. В 6 случаях к нарушителям требований ордера приняты административные меры.

В районный отдел внутренних дел поступило заявление, в котором говорилось, что гражданка З. Д. подвергается притеснению со стороны мужа. Ей выдали охранный ордер, а супругу объяснили, к чему приведет нарушение требований. Изучение

проблемы показало, что глава семейства, имея профессию парикмахера, нигде не работает, пристрастился к спиртному, часто происходят ссоры из-за бытовой неустroенности. Дело дошло до развода.

Ситуацию обсудили с участием «махаллинской семерки». Подыскали место для открытия парикмахерской, в которой трудоустроили мужа заявительницы. Благодаря принятым мерам семье удалось сохранить.

С начала года К. Бекманова обошла 113 домохозяйств и добилась положительного решения 56 из 61 выявленных проблем. В их числе вопросы, касающиеся семьи, занятости, охраны здоровья матерей.

– Общество должно уделять особое внимание образованию девушек. Отрадно, что сейчас благодаря действенным мерам реализуются стремления женщин обрести достойное место в жизни. Государство

предоставляет льготы для получения высшего образования, обучения востребованным профессиям, налаживания бизнеса. Обо всем этом говорю в ходе профилактических мероприятий, рассказываю о правах женщин, – делится старший лейтенант К. Бекманова.

Что касается нашей героини, она окончила Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза по направлению «Психология». Некоторое время преподавала в колледже. В 2022 году принята на службу в органы внутренних дел. Начинала с должности инспектора-психолога группы по работе с несовершеннолетними и молодежью СОБ Амударьинского РОВД.

Вместе с супругом О. Жуманиязовым воспитывают троих детей.

Азамат  
ПИРНИЯЗОВ,  
соб. корр.

## MUNAJJIMLAR BASHORATI

(30-sentabrdan – 6-oktabrgacha)



**Qo'y.** Bu hafta moliyaviy ahvolingiz yaxshilab, hatto sarmoyali takliflar olishingiz mumkin. Ham shaxsiy masalalar, ham ish yuzasidan ko'p joylarda bo'lishingiz kutilmoqda. Faqat o'z vaqtida dam olishni unutmang.



**Buzoq.** O'z mavqingizni mustahkamlab olish uchun juda qulay palla. Agar ish borasida qat'iyatli bo'lsangiz, omad sizga kulib boqadi. Seshanbada do'stlaringiz yordamiga suyanishingiz mumkin. Juma kuni yangi ishlarga qo'l urmaganingiz ma'qul. Yakshanba – yangiliklarga boy bo'ladi.



**Egizaklar.** Bu davrda hamkasblar bilan munozaralar chog'ida nizoga bormagan ma'qul. Bu borada yon berish keyinchalik o'z ijobiy natijasini beradi. Yaqin insonlar bilan yanada diqqatli munosabatda bo'ling, ehtimol, ularga yordamingiz kerakdir.



**Qisqichbaqa.** Kelayotgan haftada ishlar o'ylaganingizdek bir maromda kechmaydi. Unutmang, ehtiyotkorlik ko'pgina tashvishlarni chetlab o'tishga yordam beradi. Shanbada atrofingizdagilar bilan kamroq suhbatda bo'ling. Dam olish kunlari imkon qadar oila davrasida hordiq oling.



**Arslon.** Siz uchun hafta moliyaviy masalalar bilan bog'liq uchrashuvlarga boy bo'ladi. Biroq xarid qilishdan oldin hamma narsani hisobga oling. Hisobli do'st ayrilmas, degan naqlni esdan chiqarmang. Hafta oxirida kutilmagan tanishuv yuz berishi mumkin.



**Parizod.** Bu hafta rasmiy ishlar uchun juda qulay palla. Biroq o'zingizni ko'p urintirmang. Do'stlar yordamingizga ehtiyoj sezishadi. Agar har bir ishga sabr-toqat bilan kirishsangiz, payshanbaga borib sizni qiynayotgan barcha masalalar o'z yechimini topadi.



**Taroz.** Ushbu davrda do'stlar va oila a'zolari o'rtasida tanlov qilishga to'g'ri keladi. Bu borada imkon qadar xushmuomala va shu bilan birga qat'iy bo'ling. Tabiiyki, tanlov yaqinlaringiz foydasiga bo'lishi zarur. Shu yo'l bilan ko'ngilsizlikning oldini olish mumkin bo'ladi.



**Chayon.** Hafta boshida ishlarni biroz kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Har bir harakatingizni nazorat qiling. Hafta o'rtasida kutilmagan yangilik eshitasiz. Shanbada uyingizga mehmon kelishi mumkin. Yakshanbani kush kayfiyatda yakunlaysiz.



**O'qotar.** Ish joyingizda fikr-mulohaza bildirishdan oldin, yaxshilab o'ylab ko'ring. Har qanday noto'g'ri so'z kelgusida sizga qarshi ishlatilishi mumkin. Hayotda hamon yolg'iz bo'lsangiz, bo'lg'usi taqdir yo'ldoshingiz bilan uchrashuvga tayyor turing. Bu davrda salomatlikka jiddiy e'tibor qaratib, jismoniy harakatlar me'yorini ortitirib yubormang.



**Tog' echkisi.** Haftaning ilk kunlari siz uchun biroz og'irroq kelishi mumkin. Xavotirlanmang, hafta o'rtalariga borib hammasi joyiga tushib ketadi. Atrofdagilar bilan munosabatlari aynan shu haftada ijobiy tus oladi. Hafta oxirida moliyaviy ishlarda omadingiz chopadi.



**Qovg'a.** Ijodiy shijoat boshingiz bilan ishga sho'ng'ishga majbur etishi mumkin. Nimanidir qo'l mehnati yordamida bajarish zarur bo'lsa, buni hech ikkilanmay, albatta, amalga oshiring. Aynan hozir to'g'ri qaror qabul qilish uchun qulay davrdir. Daromad kelishi aniq bo'lsa-da, pullarni behuda sarflashdan qoching.



**Baliq.** Qancha ko'p mehnat qilsangiz, hamkasblar orasida shuncha ko'p hurmat va e'tiborga sazovor bo'lasiz. Ertalab ishga vaqtiliroq kelish yoki kechqurun kechroq ketishdan cho'chimang – barcha sa'y-harakatlaringiz mukofotini olasiz. Biroq bu davrda oila a'zolaringizni ham unutib qo'ymang.



*Qishloqning bahori –  
eng go'zal bahor,  
Shaharga ortiqcha intilma, bola.  
Shaharda varraklar erkin uchmaydi,  
Shaharning osmoni simlarga to'la...*

Bu satrlar Jizzax viloyati G'allaorol tumani Solin qishlog'ida tug'ilib o'sgan Bekzod Oqbo'tayevga tegishli. She'rlarida samimiylik va mulohaza zo'hir. Uning yozganlari qalbga quvonch, yuzga tabassum indiradi, o'yga toldiradigan misralari ham bisyor.

*Ko'nglimda borini yozaverdim-u,  
Sargardon yurishdan bo'lmadim xalos.  
Men ko'nglim dunyosi  
ichra mashhurman,  
Meni o'z she'rlarim taniydi, xolos...*

Uning bitiklari qalamkash shuuri xuddi dovullarda o'zini izlayotgan bo'ronqush yanglig' halovat bilmasligiga ishora qilayotgandek tuyuladi. Aslida ham Bekzodning tabiati shunday, tinim neligin unutmagan, hayotning barcha jabhalarida o'zini sinab ko'rgisi keladi. Erishayotganlari esa Tangri ko'p iste'dodlar bilan siylaganini sezdiradi.

Chunonchi, milliy va maqom yo'nalishidagi qo'shiqlarni qoyilmaqom ijro etadi, ssenariylar yozadi, yurtimiz tarixi, qadriyatlarini haqida gap ochilgudek bo'lsa, uni tinglab charchamaysiz. Ammo haqiqiy shuhratni sahnada qozondi. Bekzod ko'pchilik yurtdoshlarimizga «Qalpoq», «Mutoyiba» kabi satirik ko'rsatuvlarda yaratgan rollari Hamro bobo obrazi orqali yaxshi tanish.

Bekzod Hamro taxallusi bilan ijod qiladigan qahramonimiz aktyor sifatida «Avloniy» badiiy hamda hujjatli filmlarida shoir Tavallo obrazini muvaffaqiyatli ochib bergan. Shuningdek, uning ssenariylari asosida «Osmon qani?», «Ertaga maktab» badiiy filmlari, «Muqimiy» hujjatli filmi suratga olingan. Shu tarzda Bekzod O'zbekiston davlat san'at institutining sahna va ekran dramaturgiyasi yo'nalishida egallagan bilimlarini hayotga tatbiq etayotir.

U o'zining turli sohalarda erishayotgan yutuqlarini adabiyotga bo'lgan muhabbati bilan izohlaydi. Jek London, Mark Tven, Vasiliy Yan, Mixail Bulgakov sevimli adiblari. Dunyo tan oladigan ash'or bitish, badiiy film ssenariylari yozishga niyatlanadi. Lekin ne ishning boshini tutmasin, ustozlari — «Abdullajon», «Suyunchi», «Chinor ostidagi duel», «Tangalik bolalar» kabi qator filmlar ssenariylari muallifi Rixsivoy Muhammadjonovning «Yolg'on yozma», de-

## «MENI O'Z SHE'RLARIM TANIYDI, XOLOS»

gan maslahatiga amal qiladi. Xoh poytaxt, xoh o'zi tug'ilib o'sgan joy bo'lsin, yolg'iz va yayov yurishni yoqtiradi. Mazkur jarayonda uning she'rlari, kinoasarlari dunyoga keladi.

16–17 yoshida poytaxtda u bilan yuz bergan voqeani so'zlab berdi: «Yarim kechasi men chiqqan avtoullov buzilib qoldi. Tanish haydovchi yuritgichga ko'z yugurtirar ekan:

«Ketaver uka, bu zormanda hali-veri yuradiganga o'xshamaydi, bosh-

oldi. So'ng stol ustiga dasturxon yozdi va non, kolbasa, choy qo'ydi. Birga ovqatlandik, yelkasiga osib yuradigan sumkasidan dori olib, uzatdi: «Mana buni suv bilan ichib yubor, shamollamayсан».

Keyin xodim yana xizmatiga chiqib ketdi, men esa uning xonasida tunab qoldim. Ertalab navbatchi kaminani uyg'otib, eshikkacha kuzatib qo'ydi. Oradan 3 kun o'tgach, minnatdorlik bildirish uchun Umid akani so'rab bordim. Uning xizmat joyi o'zgarmani, tug'ilib o'sgan viloyatiga ketganligini



qa mashinada yetib olarsan», dedi. «Xo'p», dedimu ichim muzladi, chunki taksiga yetgulik pulim yo'q, metro allaqachon yopilgandi.

...Fevral. Yomg'ir aralash qor yog'yapti. Qunishganimcha ketyapman, ko'p o'tmay kurtkam butkul ividi, qaltiray boshladim. Shu holimga qarshimdan chiqqan ichki ishlar organlari xodimi tayanch punktiga olib ketdi. Yo'l-yo'lakay Toshkent madaniyat kollejida o'qishim, yotoqxonaga ketayotganligimni tushuntirdim.

U bo'lsa meni pechka yoniga o'tqazdi, jiqqa ho'l kurtkamni quritish uchun osib qo'ydi. Keyin qandaydir daftarga men to'g'rimdagi ma'lumotlarni yozib, barmoq izlarim nusxasini

aytishdi. Ana shu odamdan «rahmat» qarzim bor».

Adabiyot va san'at olamida o'z o'rnini topishga intilayotgan ijodkorlardan biri bo'lmish Bekzod Hamro izlanishdan to'xtaganini yo'q. Hammasiga vaqt topyapti, ingliz tilini o'rganyapti. O'zi sevadigan adiblar asarlarini ularning ona tilida o'qishga umidlangan. Qisqasi, shoir tafakkur va tug'yonlar dengizida orzu manzili tomon intilayotir.

*Besh daqiqa – mening umrim mazmuni.  
Izlaman men qolgan umrimdan ma'ni.  
O'tinib so'rayman, qizg'onma mendan  
Besh kunlik dunyoda besh daqiqani...*

**Alijon ABDUSATTOROV,  
o'z muxbirimiz.**

Jizzax viloyati.



Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги раҳбарияти,  
Фахрийлар кенгаши истеъфодаги полковник  
**Ўткир ПЎЛАТОВ**нинг  
вафот этганлиги муносабати билан марҳумнинг оила аъзолари  
ва яқинларига ҳамдардлик билдиради.

**MUASSIS:**  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Sarvar SOBIROV  
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

**TELEFONLAR:**

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

**Obuna masalalari bo'yicha:**

71-231-38-74;

97-420-89-24

**Web-site:** www.postda.uz

**E-mail:** info@postda.uz



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-  
yozma va suratlar egasiga  
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-  
ganda manba ko'rsatilishi shart.  
Gazeta tahririyat kompyuter  
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxonalar manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma №3328.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 45856 nusxada chop etildi.  
**Obuna raqamlari:**  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ:**  
100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.